جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 22-noyabr
№ 48(48)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

“MARDONA ELLARIM BORDIR”



Ajiniyoz o‘zining betakror va sermazmun ijodi bilan xalqimiz madaniyati va adabiyotini rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash, o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari o‘rtasidagi azaliy do‘stlik va og‘zibirchilikni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shgan ulkan ijodkordir.

Shavkat MIRZIYOYEV

(4-sahifada o‘qing).

KUN NAFASI

PARLAMENT

XALQ UYIGA AYLANISHI KERAK



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 18-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining saylovdan keyingi birinchi majlisida so‘zlagan nutqida saylovda deputat degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan yurtdoshlarimizni chin qalbdan samimiy tabrikladi. Prezidentimiz e’tirof etganidek, saylov natijasida Qonunchilik palatasi tarkibi qariyb 60 foiz yangilanib, 87 nafar yangi deputat saylandi.

YANGI O‘ZBEKISTON PARLAMENTI ME’MORI

Har qanday saylov inson, jamiyat va davlat uchun muhim siyosiy jarayondir. Ayniqsa, jahondagi bugungi keskin va tahlikali vaziyatda bunday umumxalq tadbirlarini o‘tkazish yanada katta mas’uliyat talab etadi.

Bu galgi saylov yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq o‘tkazilgan ilk saylov sifatida tarixga kirdi. Huquq va vakolatlari sezilarli darajada kuchaygan, mas’uliyati bir necha karra ortgan yangi xalq vakilligi tizimi shakllantirildi, dedi davlatimiz rahbari.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘nggi 8 yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining alohida va qo‘shma majlislarida 17 marta nutq so‘zladi hamda ma’ruzalar qildi.

Parlament faoliyati Prezidentimizning doimiy e’tiborida turibdi. Yurtboshimiz parlament faoliyatini juda yaxshi biladi, chunki o‘z davrida 15 yil deputat maqomida faoliyat olib borgan.

O‘zbekiston Prezidenti o‘tgan davrda xalqaro parlament tashkilotlari rahbarlari bilan 10 martadan ortiq, shuningdek, milliy parlamentlar rahbarlari bilan ham juda ko‘p marta uchrashdi. Parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qator taklif va tashabbuslar bilan chiqdi.

Yurtboshimiz parlament forumlariga muntazam ravishda tabrik yo‘llaydi. Xorijiy mamlakatlarga tashriflari chog‘ida ham doim parlament rahbarlari bilan uchrashadi.

Bularning barchasi – Prezidentimiz O‘zbekiston parlamentiga ishonishi va tayanishidan dalolatdir. Millat Sardorining o‘z ta’biri bilan aytganda: **“Kuchli parlament va xalq vakillik organlari – Yangi O‘zbekistonning tayanchidir”.**

Yana bir muhim mezon: yangi tarkibdagi quyi palataning ilk majlisida o‘tgan besh yil davomida Qonunchilik palatasi samarali faoliyat ko‘rsatgani e’tirof etildi.

(Davomi 2-sahifada).

DOLZARB MASALA

Kuni kecha bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullashga bag‘ishlangan majlisida Yurtboshimiz tomonidan 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nomlash taklifi bildirildi. Oxirgi yillarda tez-tez tilga olinayotgan yashil iqtisodiyot yoki sirkulyar iqtisodiyot tushunchalarining mazmun-mohiyatini hozircha, afsuski, hamma ham to‘la anglab yetganicha yo‘q. Bu atamalar va ularning tub maqsadi haqida ma’lumot beruvchi materiallarni ommaviy axborot vositalari orqali tez-tez e’lon qilib turish, mas’ul tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash, aholi orasida ekologik madaniyatni kengroq yoyish va barchani atrof-muhitni asrab-avaylashga undash bu borada ko‘zlangan maqsadlarimizga erishishga yordam berishi shubhasizdir. Buning uchun, avvalo, sirkulyar iqtisodiyot o‘zi nimaligi va qanday ishlashi haqidagi ma’lumotlarni ko‘proq yoyinlash lozim.

SIRKULYAR VA “YASHIL” IQTISODIYOT



Sirkulyar iqtisodiyot “yopiq sikl”ga egaligi bois sikllik iqtisodiyot ham deyiladi. U ishlab chiqarish va iste’mol modeli hisoblanib, an’anaviy, ya’ni “chiziqli” iqtisodiyotning muqobili sifatida maydonga chiqadi. O‘tgan asrning 70-yillaridan e’tiboran sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga e’tibor qaratila boshlandi va 80-yillarda u jadal rivojlandi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda bu borada sezilarli natijalarga erishilgan. Masalan, Yaponiyaning mashhur Kamikasu qishlog‘ida chiqindi miqdori nolga tushirilgan, ular 43 yo‘nalishda saralanib, keyin ishlab chiqarishga yo‘naltiriladi.

Ekologiya muammosi jahon miqyosida tobora jiddiylashib bormoqda.

O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. So‘nggi yillarda aholi soni ko‘payishi, shaharlarning kengayishi va sanoatning rivojlanishi bois chiqindi hajmi sezilarli darajada oshdi.

(Davomi 3-sahifada).

BUGUNNING SHYE’RI

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

HAZRATI INSON

Odam Ato bilan Momo Havolar –
Shunchaki kelmadi aylab safolar.
Ilk bug‘doy ekkan ham shular bo‘lgaydir,
Uylaring bug‘doyga bugun to‘lgaydir.

Xudoyim ko‘p irq-u millat yaratmish,
Mehnat-u zahmatdan hikmat yaratmish.
Bir nafas olami kubroga boqqil,
Ko‘ksingda asrlar mash’alin yoqqil.

Hazrat Yassaviydan duolarim bor,
“Devoni hikmat”day dunyolarim bor.
Maqbara qurdirgan bobom Temurxon –
Hazrati insondir, hazrati inson.

El-ulus dardida chekkan g‘am-hasrat,
Hazrati insondir Navoiy hazrat.
“Boburnoma” asli hasrati Bobur,
Uni bitgan inson – hazrati Bobur.

Jaholatga qarshi ma’rifat degan,
Ma’rifat deganga mag‘firat degan.
Manov Kunxo‘jadir, Berdaqdir manov,
Muhitni yoritgan qo‘sh ulug‘ yalov.

Inson bolalari qosh-u qaroqdir,
Bir yon o‘zbek, bir yon qoraqalpoqdir.
Jayxundaryo uzra ko‘priklar solgan,
Davr-u zamonlarni bir qila olgan.

Hazilakam zamon emas bu zamon,
Uning Bosh me’mori – hazrati inson.
Mo‘ynoqni qaytadan bunyod aylagan,
El-u xalq ko‘nglini obod aylagan.

Bir lahza iftixor gulxanin yoqqil,
Bo‘zatovdan turib Nukusga boqqil:
Bunday davr-u davron qaylarda edi?
Nolang do‘mbira-yu naylarda edi.

So‘ra Ibrohimday oshiqlaringdan –
Aytar yor-u diyor qo‘shiqlaridan.
Shunchaki o‘tmadi To‘lepbergenlar,
El dardin jon bilan to‘lab berganlar.

Bugun qancha hayrat do‘st yurtlardadir,
Ulug‘ jonlanishlar Ustyurtlardadir.
Mening ham sog‘inchim, vasl-u firog‘im,
Sadag‘ang ketayin, Qoraqalpog‘im!

Bu dunyoning ko‘rki – odam bolasi,
Ajiniyoz boboning bu dil xulosasi.
Daryolar berkindi, sen bekinmading,
Orol chekinsa ham, sen chekinmading.

Qatorda noring bor – karvonlaring bor,
Olamni bo‘ylagan sarbonlaring bor.
O‘zini o‘tga ham, cho‘g‘ga urganlar –
Hazrati insondir Vatan qurganlar.

Bugun qizlaringdir, o‘g‘illaringdir –
Ertan daholaring, ulug‘laringdir.
Cho‘l-u dashting yashnab gul diyor bo‘lsin,
Og‘izbirchiliging mangu bor bo‘lsin!

Avjni baland olgil, qani, do‘mbiram,
Bunday zamonlarni endi ko‘rmiram.
Deganday turibdi shodon va shoyon –
Ajiniyoz bobo – hazrati inson.

O‘ZBEK TILIM – O‘Z TILIM

YASMINA OMAR-MUN:

“MAQOM KUYLAB, MAQOMIM OSHDI”



O‘zbek tili yuragimga shunchalar yaqinki, buni so‘z bilan ta’riflay olmayman. Milliy, mumtoz qo‘shiqlarni kuylaganimda o‘zbek tilining sehrini, hayotbaxshligini, nafisligini yanada teranroq his qilib boraman va bundan ko‘nglim yayraydi, ich-ichimdan quvonaman.

(Davomi 6-sahifada).

TARIXDAN SABOQLAR

...1904-05-yillardagi Rossiya imperiyasi va Yaponiya urushida samuraylar avlodlarining omadi kelishi chor ma’murlari paytavasiga qurt tushiradi – imperiyada ichki g‘alayonlar to‘lqini boshlanadi. To‘g‘ri, istibdod asosida qurilgan imperiya bu inqirozni “qonli yakshanba” otliq qirg‘in o‘laroq saqlab qoladi. Ammo Birinchi jahon urushi boshlanishi saltanat poydevoriga o‘nglab bo‘lmas darz tushiradi.

“YOSH XIVALIKLAR”:

ALDANGANLAR QISMATI

Xorazm taxtida yigirma yildan ortiq o‘tirgan, Yangi Urganch shahriga asos solgan hukmdor, ayni paytda tarixchi va olim Abulg‘oziy Bahodurxon “Shajarayi turk” asarida yurt tarixini qalamga olarkan ko‘p o‘rinlarda “yurt buzulg‘on edi” iborasini ishlatadi. Muarrix bu ibora orqali saltanatda taxt almashishlar yoki qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro munosabatda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar natijasida kelib chiqqan ichki tug‘yonlar, isyonlar, behuda qon to‘kishlarni afsus-la qayd qilgan.

Abulg‘oziy Bahodurxon aytmish “yurt buzulg‘on” davrlardan biri aynan biz hikoya qilmoqchi bo‘lgan voqealarga ham ulgudir.

1904-yilda tashkil qilingan “Jamiyati xayriya” tashkiloti Xorazmda jadidlik harakatining keng ommalashishiga sabab bo‘ldi. Bu tashkilot sarmoyador insonlar mablag‘lari hisobidan o‘lkaning chekka hududlarida maktablar ochishga kirishdi.

Umuman olganda vohada jadidlik ikki oqimga ega bo‘lgan. Uning o‘ng oqimiga ma’rifatparvar ma’mur, xonning bosh vaziri Islomxo‘ja rahbarlik qilib, ularning maqsadi xonlikni saqlab qolish orqali siyosiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish edi.

(7-sahifada o‘qing).

MUNOSABAT

O‘QTOMIR

Ayni kunlarda muhtaram Prezidentimizning yangi shakllangan parlamentimiz palatalarining ilk yig‘ilishlarida hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan majlisida so‘zlagan nutqlarini barchamiz katta hayajon va diqqat-e’tibor bilan tingladik.

Chunki davlatimiz rahbari ushbu dasturiy ma’ruzalarda Yangi O‘zbekistonning bugungi kundagi ichki va tashqi siyosati hamda kelajakdagi yuksak maqsadlarini yana bir bor yaqqol ta’riflab berdilar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shubhasiz, oxirgi sakkiz yil davomida O‘zbekistonda ulkan tarixiy islohotlar amalga oshirildiki, bu o‘zgarishlar yurtdoshlarimizning ong-u tafakkuridan tortib, kundalik turmush tarzida ham o‘z ifodasini topmoqda. Jahonda ham O‘zbekistonga nisbatan qarash va munosabatlar tubdan ijobiy tomonga o‘zgardi. Demak, yurtimizda kechayotgan islohotlar nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyodagi millionlab insonlar tafakkurida ham aks sado bermoqda.

Prezidentimiz nutqida tilga olingan har bir fakt va dalillar – O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning guvohi, ayrim o‘rinlarda esa uning ishtirokchisi sifatida qalbimizni g‘urur va iftixorga to‘ldirgan bo‘lsa, belgilab berilgan maqsad va rejalar har birimizning zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Xususan, Yurtboshimizning 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi xalqimizga murojaat o‘laroq yangragan nutqida farzandlarimizni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, ularni ilm-fan, axborot texnologiyalari, ma’naviyat, san’at, adabiyot va sport bilan oshno etish uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilishi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari: “Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri – iqtisodiyot, biri – ma’naviyatdir. Ma’naviy buyuk xalq – iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi”, deb ta’kidlagani bejiz emas. Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanmoqda. Taraqqiyot o‘lchovlari ham mutlaqo o‘zgardi. Endilikda global taraqqiyot indekslari avvalgidek faqatgina sanoat ishlab chiqarishiga bog‘liq emas.

(Davomi 3-sahifada).

PARLAMENT

XALQ UYIGA AYLANISHI KERAK



Akmal SAIDOV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, akademik



Boshlanishi 1-sahifada.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Quyi palata tomonidan 130 dan ortiq yangi va yaxlit qonunlar qabul qilindi. Bu – oldingi davrga nisbatan 1,5 karra ko‘p”.

Shu bilan birga, yangi tarkibdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi birinchi majlisida parlament faoliyatida yutuqlar bilan birga e’tibordan chetda qolgan masalalar ham bo‘lganiga e’tibor qaratildi. Prezident ularning ayrimlariga to‘xtaldi. Xususan:

birinchidan, to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlar ulushi kamligicha qolmoqda;

ikkinchidan, parlament nazorati to‘laqonli ta’sirchan institutga aylandi, deb hozircha aytib bo‘lmaydi;

uchinchidan, O‘zbekiston Prezidenti ta’biricha, “parlament va deputatlik nazorati ijtimoiy soha bilan cheklanib qolmoqda”.

“DEPUTAT – BU XALQ XIZMATCHISI”

O‘zbekiston Prezidenti asosli ta’kidlaganidek, “parlament – demokratiya maktabi”, shuningdek, “parlament – xalq uyi”. O‘z navbatida, “deputat – fikri-zikri bilan xalqqa eng yaqin odam, doimo el-yurtning tashvish va muammolari bilan yashaydigan, katta bilim va tajribaga ega bo‘lgan shaxs”.

Bu gal Prezident Shavkat Mirziyoyev xalq noiblariga yana bir yangi ta’rif berdi. Ya’ni: “Deputat – bu xalq xizmatchisi, barchaga o‘rnak bo‘ladigan, siyosiy bilimi va ongi yuksak, o‘z Vatanini chin dildan sevadigan insondir”.

Shu ma’noda, deputatning mas’uliyati – xalq ishonchini qanday oqlashida namoyon bo‘ladi. Chunki xalq vakillari sifatida deputat va parlament xalqqa xizmat qiladi.

O‘rni kelganda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatiga oid ba’zi bir raqamlarni keltirish o‘rinli. Xususan, quyi palata 2020–2024-yillarda jami 654 ta qonun loyihasini ko‘rib chiqdi. Shundan 135 tasi – yaxlit, ya’ni yangi qonun loyihasi bo‘lsa, 47 tasi – xalqaro shartnomalar va bitimlarni ratifikatsiya qilishni nazarda tutuvchi hamda 472 tasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonun loyihasi hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlarining qonun ijodkorligi tashabbusi keyingi 5 yilda izchil kuchaydi. Deputatlar tomonidan o‘tgan davrda qonunchilik tashabbusi huquqi asosida 72 ta qonun loyihasi kiritildi.

Deputatlarning o‘z saylovchilari bilan uchrashuvlari ko‘lami va samaradorligi ortdi. Xalq vakillari faoliyatida saylovchilar deputat oldiga emas, deputat o‘z saylovchilari huzuriga borishi shart, degan tamoyil ustuvorligiga katta ahamiyat berildi. Deputatlarning saylov okruglarida saylovchilari bilan qariyb 30 marta uchrashuvi tashkil etilib, bu keng qamrovli jarayonda deputatlar 80 ming 254 nafar fuqaroni qabul qildi.

Deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati doirasida 73 ming 892 ta obyekt, jumladan, aholi xonadonlari, mahalla fuqarolar yig‘inlari, ijtimoiy soha muassasalari va boshqa ko‘plab tashkilot va korxonalarga tashrif buyurildi. Joylarda o‘tkazilgan 23 mingtadan ziyod uchrashuvda 48 ming 847 ta masala ko‘tarilgan bo‘lib, ayni vaqtga qadar shundan 19 ming 568 tasi ijobiy hal etildi.

Eng muhimi, deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatiga yangicha shakllar va usullar joriy qilindi. Masalan, deputatlarning saylov okruglaridagi o‘z saylovchilari bilan uchrashuvlarini har oyning oxirgi haftasida o‘tkazish va ushbu uchrashuvlar yakunlarini Qonunchilik palatasi hamda uning Kengashi majlislarida ko‘rib chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Joylarda har bir deputat o‘z hududidagi Xalq qabulxonalari bilan doimiy aloqa o‘rnatdi. Deputatning saylov okrugida faoliyat ko‘rsatadigan yordamchisi lavozimi joriy etildi.

YANGI O‘ZBEKISTON PARLAMENTI – G‘OYALAR GENERATORI, SOG‘LOM RAQOBAT, BAHS VA MUNOZARALAR MAYDONI

Keyingi davrda siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari tomonidan hududlarda aniq masala va yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish amaliyoti tatbiq etildi.

Tabiiyki, o‘tgan sakkiz yillik davrda xalqimizning siyosiy tafakkuri tubdan o‘zgardi, siyosiy madaniyati sezilarli darajada yuksaldi. Siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi roli va ishtiroki kuchaydi. Shu ma’noda, Prezidentimiz parlamentda muxolifatni jonlantirish zarurligiga e’tibor qaratgani alohida diqqatni tortadi.

Buning uchun davlatimiz rahbari parlamentdagi muxolifatga kafolatlangan huquqlari sonini 3 tadan 6 taga oshirish, 1 nafar qo‘mita raisi va 2 nafar qo‘mita raisi o‘rinbosari lavozimlarini kafolatli egallash, har chorakda “Hukumat soati” va parlament so‘rovi doirasida kamida bittadan masala kiritish kabi qo‘shimcha huquqlarni berish taklifini bildirdi.

Prezidentimiz uqtirganidek: “Yangi davrda parlament chinakam xalq uyi, uning quyi palatasi esa g‘oyalar generatoriga, sog‘lom raqobat, bahs va munozaralar maydoniga aylanishi kerak”.

Sodda qilib aytganda, saylovlardagi sog‘lom raqobat, muxolif fikrlar kurashi parlamentga ko‘chib o‘tishi maqsadga muvofiqdir. Bu, albatta, xalqimiz manfaatlariga mos qonunlar ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Eng asosiysi, davlat rahbari partiyalar saylov kampaniyasi davomida ilgari surgan va xalqimiz qo‘llab-quvvatlagan har bir taklif, albatta, ko‘rib chiqilishi va amalga oshirilishini ta’kidladi.

PREZIDENT TASHABBUSLARINING QONUN IJODKORLIGI RIVOJIDAGI SAMARALARI

O‘zbekiston Prezidenti o‘zining qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanib, o‘tgan 5 yilda 38 ta qonun loyihasini kiritdi. Bu bilan davlatimiz rahbari “Qonunning birdan bir manbayi va muallifi tom ma’noda xalq bo‘lishi shart”, degan o‘z qat’iy talabini ro‘yobga chiqarish borasida parlament a’zolariga namuna ko‘rsatdi.

Prezidentimiz parlament faoliyatini barcha yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlantirish borasida muntazam o‘z takliflarini berib kelayotganligini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, Yurtboshimizning qonun loyihalari sifatli, xalqchil bo‘lishi va jamoatchilikning qonun ijodkorligidagi faol ishtirokini ta’minlashga doir tashabbuslariga amal qilgan holda, o‘tgan davrda Qonunchilik palatasiga kiritilgan 18 ta qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi.

Qonunchilik palatasida qonunlarni uch o‘qishda muhokama qilish tartibi joriy qilindi. Qonun loyihalari muhokamasida siyosiy partiyalar fraksiyalarining o‘rni va ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Yaxlit kodekslar qabul qilish amaliyotiga o‘tildi. Natijada Saylov, Shaharsozlik, Mehnat, Tadbirkorlik va Suv kodekslari qabul qilindi.

Haqiqatan ham, keyingi yillarda Qonunchilik palatasi faoliyatida jamoatchilik ishtiroki yanada kuchaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda 100 ming nafardan kam bo‘lmagan fuqarolar o‘z takliflarini quyi palataga kiritish huquqiga ega ekani kafolatlandi.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz fuqarolarning tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qonunchilik palatasi huzurida Jamoaviy tashabbuslar bo‘yicha parlament komissiyasini tashkil etishni taklif qildi.

TA’SIRCHAN PARLAMENT NAZORATI – SAMARALI IJRO HOKIMIYATI OMILI

Prezidentimiz milliy parlamentning oldingi tarkibi a’zolariga xuddi shu chorlov bilan chiqqandi. Qonunchilik palatasida o‘tgan davrda parlament nazoratining barcha shakllaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratildi.

So‘nggi besh yilda 75 ta parlament nazorati tadbiri amalga oshirildi. Jumladan, Byudjet ijrosi nazorati yuzasidan – 19 marta, Davlat dasturlari bajarilishi yuzasidan esa 17 marta “Hukumat hisobotlari” tinglandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ko‘ra, Davlat byudjeti ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga kiradi. Ushbu muhim vakolat deputatlarimiz zimmasiga katta mas’uliyat ham yuklashiga e’tibor qaratar ekan, Prezidentimiz bu boradagi bir qator istiqbolli vazifalarni sanab o‘tdi.

Birinchidan, Qonunchilik palatasining Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirishning vaqti-soati keldi.

Ikkinchidan, Hukumatning Davlat byudjetiga doir barcha hisobotlarini quyi palataga faqat Byudjet kodeksida belgilangan audit xulosasi bilan birgalikda kiritish amaliyotiga o‘tish kerak.

Uchinchidan, Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilishda parlament qo‘mitalari rolini oshirish muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, hozirgi vaqtda birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning xarajatlari ustidan parlament nazorati deyarli sezilmayotganligi munosabati bilan yangi saylangan deputatlar ushbu masalaga alohida yondashishlari zarur.

O‘tgan besh yilda Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a’zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish, ya’ni “Hukumat soati” joriy etildi. Bunda Hukumatning 44 nafar a’zosi deputatlarning savollariga javob berdi. Quyi palata majlislarida hukumat a’zolari, davlat organlari rahbarlarining o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan 29 ta axboroti eshitildi.

O‘tgan davrda mansabdor shaxslarga jami 72 ta parlament so‘rovi yuborildi. Qonunchilik palatasi qo‘mitalari tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng dolzarb masalalariga oid 805 ta nazorat-tahlil tadbiri o‘tkazildi. Shuningdek, mansabdor shaxslarga saylovchilar ko‘targan dolzarb masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon etish talabi bilan 1 ming 378 ta deputat so‘rovi yuborildi.

Prezidentimizning taqdimiga binoan Hukumat a’zoligiga nomzodlarni Qonunchilik palatasining majlislarida ko‘rib chiqish va ularning dasturlari bilan tanishish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. O‘tgan davrda 92 nafar nomzod shu tartib-taomil asosida tegishli yuqori lavozimlarga ma’qullandi.

YANGI O‘ZBEKISTON PARLAMENTI DIPLOMATIYASI

O‘zbekiston tashabbusi bilan keyingi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va mintaqa doirasida bir qator yirik tashabbuslar ilgari surildi va xalqaro hamjamiyat ham bu tashabbuslarni keng qo‘llab-quvvatlamoqda. O‘tgan davrda O‘zbekiston Prezidentining sa’y-harakatlari va tashabbuslari asosida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 11 ta rezolyutsiya qabul qilingani bu fikrni tasdiqlaydi.

Shu ma’noda, Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong: “BMTning 75 yillik tarixida birinchi marta O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda milliy parlamentlarning rolini kuchaytirish haqidagi rezolyutsiya qabul qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston davlat hokimiyati uch tarmog‘i bilan samarali yo‘lga qo‘ygan amaliy hamkorligi boshqa davlatlarga o‘rnak bo‘lishga munosibdir”, deya e’tirof etgani bejiz emas.

Millat Sardorining jahon minbaridan ilgari surgan yana bir tashabbusi haqida muxtasar to‘xtalish joiz. Gap 2018-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik to‘g‘risida”gi rezolyutsiya haqida bormoqda.

O‘shanda davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasidagi chiqishidan keyin Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘an yuzma-yuz tabriklab, shunday degandi: “BMT Bosh Assambleyasida o‘zbek tilida so‘zladingiz. Ilk bor BMTning yuksak minbarida Imom Buxoriy nomi Sizning tilingizda jaranglagani ham muborak bo‘lsin. Islom – tinchlik dini”.

So‘nggi yillarning muhim natijalaridan biri shuki, O‘zbekiston parlamenti jahon parlament xaritasida munosib o‘rnini egalladi. Bu yo‘lda Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Xalqaro parlamentlararo aloqalarni tizimli ravishda rivojlantirib borish bundan keyin ham deputatlarning doimiy e’tibor markazida bo‘lishi zarur”, degan yo‘riqlari muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

Milliy parlamentimiz dunyoning nufuzli xalqaro parlament tashkilotlarida faol ishtirok etmoqda, yangi tashabbuslar bilan chiqmoqda. Xususan, Parlamentlararo Ittifoq, YXHTning Parlament Assambleyasi, Yevropa parlamenti, MDH Parlamentlar Assambleyasi, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyasi, Markaziy Osiyo Parlamentlari forumi shunday xalqaro va mintaqaviy hamkor parlament tashkilotlari qatoriga kiradi.

Prezidentimiz e’tirof etganlaridek: “O‘tgan davrda parlament diplomatiyasi va parlamentlararo aloqalar tashqi siyosatimizning ta’sirchan va pragmatik vositasiga aylandi”. O‘zbekiston Respublikasining “Parlament diplomatiyasi konsepsiyasi” qabul qilindi. Shu asosda xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro tashkilotlar bilan ko‘pqirrali hamda samarali hamkorlik aloqalari kengaydi, 58 ta parlamentlararo hamkorlik guruhi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasi 2025-yil aprelida Toshkentda bo‘lib o‘tadi. Ma’lumki, 2023-yil sentyabrida poytaxtimizda ushbu nufuzli xalqaro tashkilot hamkorligida Ayol spikerlar forumi muvaffaqiyatli tashkil etildi. Bugungi kunda O‘zbekiston parlamenti jahon parlamentarizmi darajasida o‘z ovozi va munosib o‘rniga ega bo‘ldi.

Yurtboshimizning “Parlamentimizning to‘rtinchi chaqiriq deputatlari mamlakatimizning kelgusi taraqqiyot yo‘nalishini belgilab bergan Asosiy qonunimizni yangi tahrirda tayyorlash va qabul qilishda jonbozlik ko‘rsatdilar va bu Yangi O‘zbekiston solnomasida yorqin tarixiy voqea sifatida muhrlandi”, degan yuksak e’tirofi ham yuqoridagi fikrlarimizning tasdig‘idir.

Taraqqiyot – muttasil rivojlanish, o‘sish va yuksalish, deganidir. Shu ma’noda, davlatimiz rahbari xalqaro parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish bo‘yicha yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, quyi palatada qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg‘unlashtirish hamda iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish masalalari bo‘yicha parlament komissiyalarini tashkil etish tavsiya etildi. Yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nomlash taklif qilindi. Mazkur taklif yig‘ilish ishtirokchilari tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi.

Shuningdek, Prezidentimiz nutqida parlament taraqqiyotining 8 ta ustuvor yo‘nalishi, ta’bir joiz bo‘lsa, Yangi O‘zbekiston parlamentining faoliyat dasturi ko‘rsatib berildi. Eng asosiysi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishning huquqiy asoslarini yaratish oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardan biri etib belgilandi.

O‘zbekiston rahbari o‘z nutqida yangi saylangan deputatlar qaysi masalalardagi qonun loyihalariga e’tibor qaratishlari zarurligini sanab o‘tdi. Prezidentimizning fikricha, shaharsozlik renovatsiyasi, ulush kiritish asosida uy-joy qurilishi, majburiy tibbiy sug‘urta, elektr energiyasining ulgurji bozori, fintex, startap va sun’iy intellekt kabi masalalarda qonunlar qabul qilishga zarurat bor.

Shu o‘rinda bir qiyosiy mulohaza: Prezidentimizning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining saylovdan keyingi birinchi majlisida so‘zlagan nutqi davlatimiz rahbari yaqinda nashr ettirgan “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” nomli ikkinchi mualliflik kitobining kvitessensiyasi, ya’ni asar ma’nosining qaymog‘i, desam to‘g‘ri bo‘ladi. Zero, ayni shu kitobda “Konstitutsiyamizda davlat hokimiyatining yagona manbayi xalq ekanligi belgilab qo‘yilgan. Shundan kelib chiqib, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettiriladi”, degan qat’iy xohish-iroda bayon etilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Prezidenti o‘ttiz yetti milliondan ortiq aholiga ega katta davlatning parlamenti a’zosi bo‘lishdek ulkan sharafga erishgan Qonunchilik palatasi deputatlarini el-yurtga ezgu xizmat qilish yo‘lida doimo qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini qayd etdi. Davlatimiz rahbari qat’iy ishonch bildirganidek, “barchamiz bir tan-u bir jon bo‘lib, sidqidildan mehnat qilib, jonajon Vatanimizni, albatta, tom ma’noda erkin, obod va farovon mamlakatga aylantiramiz”.



Konstitutsiya, 74-modda:

Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar.

SIRKULYAR VA “YASHIL” IQTISODIYOT

Boshlanishi 1-sahifada.

Chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasi ortib borayotgan yukni ko‘tara olmayotgan bir sharoitda atrof-muhit, aholi salomatligi va mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy xavf tug‘ilmoqda. Shu bois, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini O‘zbekistonda ham joriy etish nafaqat maqsadga muvofiq, balki chiqindilarni barqaror boshqarishni ta’minlashning muhim shartidir.

Sirkulyar iqtisodiyot ishlab chiqarish va iste’mol qilish modeli bo‘lib, u mavjud materiallar va mahsulotlarni imkon qadar uzoq vaqt davomida taqsimlash, ijaraga berish, qayta foydalanish, ta’mirlash, qayta tiklash va qayta ishlashni o‘z ichiga oladi.

Bunda chiqindilar minimal darajada kamaytiriladi. Mahsulot muddati tugagach, qayta ishlash yo‘li bilan chiqindi materiallari iloji boricha iqtisod doirasida saqlanadi. Ulardan qayta-qayta samarali foydalanish mumkin.

Davlat darajasida harakatlarning yetarlicha muvofiqlashtirilmagani, qayta ishlash va utilizatsiya qilishning zamonaviy texnologiyalari yo‘qligi, saralash va qayta ishlash zaruratidan aholining xabardorligi pastligi tufayli O‘zbekistonda chiqindi muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Ekologik vaziyat tezkor choralar ko‘rish va ahvol yanada yomonlashuvining oldini olishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni bu muammoni hal qilish yo‘lidagi eng muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Ushbu hujjat mamlakatning resurslarni boshqarishning yanada barqaror modeliga o‘tishga bo‘lgan intilishini aks ettiradi. Bu model qayta foydalanish, qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish tamoyillariga asoslangan. Yangi idora Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi negizida tashkil etiladi va chiqindilar bilan bog‘liq masalalarda aholi, korxonalar hamda hokimiyat organlari o‘rtasida asosiy bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi.

Agentlik bu boradagi ishlarni amalga oshirishda yagona me’yor va standartlarni ishlab chiqish hamda joriy etish, jarayonning barcha ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va chiqindilar bilan bog‘liq davlat mulkini boshqarish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi. Samaradorlikni sezilarli darajada yaxshilaydigan innovatsion yechimlarni sinovdan o‘tkazish yangi idora ishining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bunday tarkibiy o‘zgarish chiqindilarni boshqarishga yondashuvlarda yagonalikni ta’minlash va sohaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi.

Farmonda Sanitar tozalash korxonalari faoliyatini kuzatish va baholash tizimini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Kelgusi yil 1-martdan boshlab chiqindilarni yig‘ish, tashish va qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KRI) baholash mezonlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, mazkur kompaniyalar faoliyatining ochiq va shaffofligini oshirish va ishini doimiy ravishda takomillashtirishdan iboratdir.

Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda chiqindilarni boshqarish tizimini mintaqaviy darajada takomillashtirishning aniq chora-tadbirlari belgilandi.

2026-yil 1-yanvardan e’tiboran bir qator innovatsion yechimlarni joriy etish rejalashtirilmoqda. Jumladan, chiqindilar bilan ishlash xizmatlari bo‘yicha tenderlarni onlayn kuzatish va sanitar tozalash korxonalari faoliyatini nazorat qilish maqsadida chiqindi yig‘ish punktlariga videokameralar o‘rnatiladi. Bu kabi choralar tizimdagi shaffoflikni, shu bilan birga, jamoatchilik va tadbirkorlik doiralari bilan yaqin hamkorlikni ta’minlaydi. O‘zbekistonda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining tashkil etilishi jiddiy ekologik muammolarni hal qilish yo‘lidagi muhim institutsional qadamdir. Sirkulyar iqtisodiyot atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga, chiqindi poligonlari hajmini qisqartirishga hamda resurslarni qayta ishlash va “yashil” texnologiyalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishning yangi imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

Mamlakatdagi asosiy chiqindi manbalarini shartli ravishda to‘rt toifaga ajratish mumkin – sanoat, qishloq xo‘jaligi, maishiy va tijorat chiqindilari.

Sanoat chiqindilari zaharli moddalar, ishlab chiqarish chiqindilari va kimyoviy moddalar, metallar hamda plastmassalar kabi qayta ishlanmaydigan materiallardan iborat. Mamlakatimizda sanoat chiqindilari hajmi yil sayin ortib bormoqda, bu esa ularni xavfsiz utilizatsiya qilish va qayta ishlash infratuzilmasini yaratishni taqozo etadi.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lib, bu sohada o‘simlik qoldiqlari, o‘g‘itlar va oqova suvlar kabi organik chiqindilarning katta hajmi to‘planmoqda. Ushbu chiqindilar kompost shaklida



ikkilamchi qayta ishlash uchun foydali bo‘lishi mumkin, biroq ular noto‘g‘ri utilizatsiya qilinsa, tuproq va suv havzalarining ifloslanishiga olib keladi.

Maishiy chiqindilarning asosiy qismi organik chiqindilar, plastik, shisha, metall va qog‘ozdan iborat. Shaharlar aholisining demografik o‘sishi va iste’mol darajasining oshishi sababli bu turdagi chiqindilar hajmi sezilarli darajada ko‘paygani sanitariya tozalash va utilizatsiya tizimida jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tijorat chiqindilari – bu do‘konlar, restoranlar, bozorlar, ofislar, mehmonxonalar, bosmaxonalar, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ustaxonalari faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan qattiq va yarim qattiq chiqindilardan iborat.

Bugungi kunda O‘zbekistonda chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimi an’anaviy usulga asoslangan bo‘lib, ular asosan maxsus poligonlarga ko‘miladi. Qayta ishlashni joriy etish bo‘yicha ba’zi harakatlar mavjud bo‘lsa-da, bu chora-tadbirlar hali yetarli darajada rivojlanmagan, tarqoq holatda. Maishiy va sanoat chiqindilarning oz qismi qayta ishlanadi. Asosan metall, qog‘oz va plastik kabi materiallar ikkilamchi qayta ishlashga yo‘naltiriladi. Chiqindilarni alohida yig‘ish tizimining yo‘qligi vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Natijada aholi ham, korxonalar ham qayta ishlash jarayoniga kam jalb qilinadi.

Chiqindilarni yoqish inshootlarining yo‘qligi bois O‘zbekistonda bu usul deyarli qo‘llanilmaydi. Biroq agar kam chiqindili zamonaviy texnologiyalardan foydalanilsa, mazkur usulni joriy etish orqali to‘lib-toshgan poligonlar muammosini qisman hal qilish mumkin.

Chiqindilar bilan ishlash tizimidagi kamchiliklar atrof-muhitga ham, mamlakat iqtisodiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi sir emas. Ekologik ta’sir shundan iboratki, zararli chiqindilar poligonlarga ko‘milganda zaharli moddalar tuproq va yer osti suvlariga sizib, atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Ulardan ajralib chiqadigan metan va boshqa issiqxona gazlari ham iqlim holatiga ta’sir qiladi. Qayta ishlanmagan maishiy va sanoat chiqindilari ekotizimlarning buzilishi, tuproq va suv resurslarining yemirilishidek uzoq muddatli ekologik xavflarni keltirib chiqaradi. Havo, suv va tuproqning ifloslanishi esa aholining umumiy sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va tibbiy xizmatlarga sarflanadigan xarajatlarni oshiradi.

Iqtisodiy oqibatlar chiqindilarni samarasiz boshqarish bilan bog‘liq ekologik ifloslanishlarni bartaraf etish xarajatlarini, shuningdek, ikkilamchi materiallarni qayta ishlash imkonini boy berishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, eskirgan infratuzilmani saqlash xarajatlari o‘sishda davom etmoqda, bu esa sanitariya tozalash va chiqindilarni boshqarish uchun davlat xarajatlarini oshirishni taqozo etadi.

Xullas, O‘zbekistondagi mavjud chiqindilar bilan bog‘liq vaziyat sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish va qayta ishlash hamda utilizatsiya qilishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan islohotlarni zudlik bilan o‘tkazishni talab qiladi. Ushbu muammoni hal qilish orqali nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilash, balki chiqindilarni ikkilamchi qayta ishlash va resurs sifatida foydalanish yordamida yangi iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lish mumkin.

Chiqindilarni boshqarish bilan bog‘liq jiddiy ekologik va iqtisodiy muammolarga duch kelayotgan O‘zbekiston uchun sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish yangi istiqbollarni ochmoqda. Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy afzalliklaridan biri resurs xarajatlarini qisqartirishdir. An’anaviy iqtisodiyotda materiallar ishlatilgandan so‘ng chiqindixonalarga tashlanadi yoki yo‘q qilinadi, bu esa qimmatbaho resurslarning boy berilishiga olib keladi.

Sirkulyar iqtisodiyot boshqacha yondashuvni taklif qiladi: bunda chiqindilarga qayta ishlanishi va qayta foydalanilishi mumkin bo‘lgan resurs sifatida qaraladi. Bu nafaqat yangi materiallarni xarid qilish xarajatlarini balki chiqindilarni yo‘q qilish xarajatlarini ham kamaytiradi. Sirkulyar iqtisodiyot mamlakat ichida qayta ishlangan resurslardan foydalanish orqali import qilinadigan materiallar hajmini qisqartirish imkonini ham beradi.

Bundan tashqari, aylanma iqtisodiyot yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi. Aylanma modelga o‘tish jarayoni chiqindilarni qayta ishlash, uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish kabi yangi soha va tarmoqlarni vujudga keltirib, katta miqdordagi qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga yo‘l ochadi.



Nurislom TO‘XLIYEV,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori,
O‘zFA akademigi

Texnologik innovatsiyalar sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘ringa ega. O‘zbekistonda chiqindilar miqdorini kamaytirish va ularning atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirish uchun materiallarni qayta ishlash va qayta foydalanishning ilg‘or texnologiyalarini joriy etishda katta imkoniyatlar mavjud.

Chiqindilarni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalari nafaqat kamaytirish, balki keyinchalik foydalanish uchun qimmatli materiallarni ajratib olish imkonini beradi. Masalan, plastik chiqindilarni qayta ishlash qurilish, xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish va boshqa sohalarda qo‘llaniladigan yangi polimer materiallarning yaratilishiga olib keladi.

Organik chiqindilarni qayta ishlash orqali biogaz ishlab chiqarish mumkin va bu mamlakatning qishloq hududlari uchun muqobil energiya manbayiga aylanadi.

Chiqindilarni alohida yig‘ish va qayta ishlash tizimlarini joriy etish O‘zbekiston uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri sanaladi. Bu qayta ishlanadigan xomashyo sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va uni tashish hamda saralash xarajatlarini kamaytiradi.

Aylanma iqtisodiyotga o‘tishda kichik va o‘rta biznes hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Resurslardan qayta foydalanish va chiqindilarni kamaytirish tamoyillariga asoslangan “yashil” biznes modellarini joriy etish tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. O‘zbekiston o‘zining faol tadbirkorlar hamjamiyati bilan aylanma iqtisodiyot sohasida barqaror biznes-modellar va startaplarni rivojlantirish bo‘yicha mintaqada yetakchiga aylanishi mumkin.

“Yashil” startaplar chiqindilarni qayta ishlashdan tortib, qayta ishlangan materiallardan mahsulotlar yaratishgacha bo‘lgan turli sohalarda faoliyat yuritadi. Masalan, kompaniyalar mebel mahsulotlari, kiyim-kechak yoki qurilish materiallari kabi ikkilamchi materiallardan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ijara, tovar ayirboshlash xizmatlari, ikkilamchi savdo uchun raqamli platformalar hamda texnikani ta’mirlash va tiklash xizmatlari kabi resurslar sarfini kamaytirishga qaratilgan loyihalar ham istiqbolli hisoblanadi.

Sirkulyar tamoyillarning joriy etilishi davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga yo‘l ochadi. “Yashil” startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari va materiallarni qayta ishlash va qayta foydalanish bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga imtiyozlar berishning ham ahamiyati katta.

Ta’kidlash joizki, chiqindi muammosi faqatgina infratuzilma va qayta ishlash korxonalarining yetishmasligidan iborat emas, bu – an’analar, tarbiya va madaniyat bilan bog‘liq yirik ijtimoiy muammodir.

Boshlanishi 1-sahifada.

Ayni paytda axborot texnologiyalari sohasi bashariyat rivojining asosiy o‘lchov mezonlaridan biriga aylangan.

Shu ma’noda, texnologiyalar jadal ravnaq topib borayotgan bir davrda yashayotgan yoshlar – zamonaviy til bilan aytganda, “Z avlod” vakillari (raqamli dunyo bolalari) o‘ziga xos xususiyatlar ruhiga ega bo‘lib ulg‘aymoqda. Ularning dunyoqarashi, qiziqishlari, ma’lumot olish usullari oldingi avlodlarnikidan tubdan farq qiladi. Bu esa o‘z-o‘zidan ularni tarbiyalashda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. San’at va madaniyat sohalari esa ushbu jarayonda juda muhim ahamiyat kasb etadi.



O‘QTOMIR

Ayniqsa, ushbu avlodning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda san’at muhim vosita hisoblanadi. Rassomlik, musiqa, teatr, kino san’ati va adabiyot bolalar hamda o‘smirlarning tasavvuri, ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirib, turli muammolarga oqilona yechim topish qobiliyatini tarbiyalaydi. Ularning o‘z ko‘nglidagi his-tuyg‘ularini ifoda etish, o‘zligini anglash va dunyoni chuqurroq tushunishiga ko‘maklashadi.

Madaniy qadriyatlar farzandlarimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishida beminnat ko‘makchi vazifasini o‘tashiga shubha yo‘q. Yoshlarda milliy g‘urur, Vatanga muhabbat, insoniylik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishda tarix, adabiyot, musiqa va raqs san’atining ahamiyatini hech bir mezon bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Ana shu nuqtayi nazardan ayni paytda muhtaram Yurtboshimiz tomonidan san’at, madaniyat va umuman, ma’rifatga ulkan e’tibor qaratilayotgani zamirida nechog‘li ulug‘ maqsadlar mujassam ekanligi ayon bo‘ladi.

Ma’lumki, 2023-yilda birgina madaniyat va san’at sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan 5 karra ko‘paydi. Sohaga oid 4 ta qonun, Prezidentimizning farmon va 35 ta qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 98 ta qaror va farmoyishlari qabul qilindi.

Quvonarli jihati, keyingi vaqtlarda xorijiy mamlakatlarga safarlarimiz chog‘ida chet ellik hamkorlarimiz bizning yurtimizda san’at va madaniyat sohasiga bu qadar yuksak e’tibor qaratilayotganini o‘zgacha havas va mamnuniyat bilan e’tirof etishlariga ko‘p bor guvoh bo‘lyapmiz. Bu ham bejiz emas. Chunki madaniyat va ma’rifatga bunchalik ulkan e’tibor qaratilishi tarixda ham, jahon tajribasida ham kam uchraydigan noyob hodisa hisoblanadi.

Albatta, bunday g‘amxo‘rlik san’at sohasi vakillariga katta g‘urur bag‘ishlash bilan birga, juda katta mas’uliyat va javobgarlik ham yuklaydi. Eng avvalo, yuqorida ta’kidlanganidek, bugungi yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda san’at va madaniyatning mislsiz ta’sir kuchidan unumli foydalanishimiz zarur.

Ayni paytda dunyoda bolalar va yoshlarning ong-u tafakkurini egallashga bo‘lgan intilishlar bir zum ham tinim bilmayapti. Milliy o‘zligimiz va qadriyatlarimizga yot bo‘lgan bunday g‘oya-maqsadlarni turli xil mobil vositalar, xususan, kompyuter o‘yinlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga singdirishga zo‘r berilmoqda. Afsuski, bugungi tezkor va shiddatli zamonda internet makonidagi behisob ma’lumot va manbalarga xolis baho berib, ularning saragini sarakka, puchagini puchakka chiqarish ham oson kechmayapti.

Bunday sinovli jarayonda biz, san’at va madaniyat sohasi vakillari Yangi O‘zbekistonda kechayotgan xalqchil islohotlar ruhi bilan to‘yingan, milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettiradigan raqobatbardosh ijod namunalari, ya’ni milliy kontentlarni ko‘proq yaratib, ularni barcha vositalar orqali yoshlarga yetkazishimiz lozim. Barchamiz shu orqali farzandlarimiz qalbining ishonchli himoyachisi va tafakkurining tarbiyachisiga, pirovardida muhtaram Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan tarixiy islohotlarning chinakam ishtirokchisiga aylanishimiz mumkin.

Yurtimizda har bir yilga ma’lum bir nom berish, shunga uyg‘un tarzda davlat dasturini qabul qilish va uni amalga oshirish ezgu an’anaga aylangan. Jumladan, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash” yilida ham mazkur yo‘nalishda ulkan o‘zgarishlarga qo‘l urildi. Prezidentimiz kelgusi 2025-yilni O‘zbekistonda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilishni taklif etdilar va buning ahamiyati haqida to‘xtalib, “Biz mo‘tabar ona zotini qanday yuksak hurmat-ehtirom qilsak, o‘zimizni qurshab turgan tabiatga ham shunday munosabatda bo‘lishimiz zarur” deya ta’kidladilar.

Darhaqiqat, keyingi vaqtlarda nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda atrof-muhitga munosabat – kelajakka, ona sayyoramiz taqdiriga munosabat masalasiga aylandi. Ayniqsa, bizning mintaqamiz qay darajada ulkan ekologik muammolar bilan yuzma-yuz kelayotganini inobatga olsak, bu masala biz uchun qay darajada ahamiyatli ekanini chuqurroq anglaymiz.

Bugun “yashil energiya”ni rivojlantirish – dunyoda ekologik vaziyatni yaxshilashning eng samarali vositasi ekanligi ham tobora oydinlashib bormoqda. Prezidentimiz yaqinda Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan BMTning Butunjahon iqlim sammitida (COP29) so‘zlagan ma’ruzasida qayta tiklanuvchi energiya – iqtisodiy maqsad emas, balki kelajakka qo‘shilayotgan hissa, kelgusi avlodlar oldidagi mas’uliyat tuyg‘usining natijasi ekanligini alohida ta’kidlaganlari ham bejiz emas.

Shunday ekan, kelgusi yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e’lon qilinishi nafaqat O‘zbekiston, balki jahon hamjamiyati uchun ham muhim amahiyatga molik masalalardan biridir. Mana shu dalilning o‘zi ham O‘zbekistonning global muammolarga e’tibori va tashabbuskorligi ortib borayotganiga yana bir misoldir.

Ayni paytda atrof-muhitni asrash faqatgina soha xodimlarining vazifasi, degan qarash loqaydlikka berilish, kaltabinlik va eng katta mas’uliyatsizlik hisoblanadi. Shu bois ushbu mavzuda yuqori saviyali, ta’sirchan asarlar yaratish orqali xalqimizga masalaning ahamiyatini kengroq yetkazish juda zarur.

Ana shularni nazarda tutib, biz O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ham bir qancha vazifalarni belgilab oldik. Jumladan, ayni paytda institutning o‘quv teatrida talaba va o‘qituvchilar ishtirokida atrof-muhitni asrash va ekologik muammolarning hayotimizga ta’siriga bag‘ishlangan yangi spektakl yaratish loyihasi ustida ish boshlandi. Institut talabalari o‘rtasida ushbu mavzuda videoroliklar tanlovini e’lon qilish ham rejalashtirilmoqda. Shuningdek, mashg‘ulot va mahorat saboqlarida yurtimiz tabiatini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, borliq bilan uyg‘un yashashning ahamiyatini talabalar ongiga chuqur singdirishga yanada ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimizning yuqorida qayd etilgan ma’ruzalari barchamiz uchun kelgusi faoliyatimizni tashkil qilishda muhim dasturilamal vazifasini o‘tashi shubhasiz. Chunki ularda Yangi O‘zbekistonning buguni va ertasi qanday bo‘lishi lozimligi, oldimizda qanday ulkan maqsadlar turganligi aniq-ravshan bayon etib berildi. Muhtaram Yurtboshimizning: “Siz, hurmatli deputatlar va Hukumatimiz a’zolari, katta-yu kichik barcha rahbarlar mana shu Murojaatnomada belgilab berilgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda fidoyilik va namuna ko‘rsatib mehnat qilasizlar, deb ishonaman”, degan so‘zlari har birimizga katta ruh va kuch bag‘ishlaydi.

Nodirbek SAYFULLAYEV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori,
professor

TAQDIMOT



“MARDONA ELLARIM BORDIR”

Yaqinda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrida atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-ma’rifiy xotira kechasi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda so‘zga chiqqan Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Kengesboy Karimov hamda Yozuvchilar uyushmasi raisining ijodiy masalalar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Minhojiddin Mirzo Prezidentimizning “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan yurtimizda Ajiniyoz ijodiy merosini yanada ommalashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berishdi.

– Shu kunga qadar Ajiniyoz ijodiga bag‘ishlangan ko‘plab uchrashuvlar, ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. Ilmiy anjumanlarda Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qirg‘iziston kabi davlatlardan kelgan mehmonlar ishtirok etib, bobomizning ijodi, ilmiy merosi haqida qimmatli fikrlar bildirishdi. Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘lining kitoblari qoraqalpoq, o‘zbek, ozarbayjon va turk tillarida qayta nashr qilindi. Bobomizning tavalludi nafaqat Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston, balki butun turkiy dunyo miqyosida keng tarzda nishonlanmoqda, – dedi Kengesboy Karimov.

Prezidentimiz qaroriga asosan ishlab chiqarilgan “Ajiniyoz” badiiy-publitsistik filmining taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi. Mazkur taqdimotda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi Omonboy O‘rinboyev ham qatnashdi.

Film Kinematografiya agentligi buyurtmasiga asosan “Qaraqalpaqfilm” kinostudiyasi tomonidan suratga olingan. Ssenariy muallifi, taniqli yozuvchi Muratbay Nizanov shoirning bolalik yillaridan tortib, balog‘atga, so‘ng kamolotga erishgan davrlarini ishonarli tarzda badiiy aks ettirgan. Asarda Ajiniyoz ijodiga oid ilmiy-nazariy qarashlar, shoirning yoz og‘ir-vazmin, favqulodda o‘tkir fikrli, mumtoz adabiyotning katta bilimdoni sifatida tasvirlangan. Sahnalashtiruvchi rejissyor Qudrat Otajonov kartinada qoraqalpoq milliy koloriti, shoir yashagan davrga ishora qiluvchi ramzlarni mahorat bilan aks ettirgan.



Adabiy-ma’rifiy kechada o‘zbek va qoraqalpoq san’at ustalari tomonidan Ajiniyoz she’rlari asosida yaratilgan kuy-qo‘shiqlar ijro etildi. Ayniqsa, “Ellarim bordir”, “Bo‘lur”, “Quba qush” kabi ashulalar, “Ajiniyoz ariyasi”, “Orzu” baletidan parcha tomoshabinlarga manzur bo‘ldi.

Shu kuni Alisher Navoiy nomidagi Milliy kino san’ati saroyida

Shavkat BOBOMURODOV

* * *

Kun peshindan kechga qarab og‘di. Osmondagi daydi bulutlar kechga tomon shamol esishi bilan seng¹day surinib ketdi. Hozirgina yarqirab turgan oq bulutlarning betiga tabiat qora pardasini yopganday osmon qovog‘ini uyib oldi. Qora bulutlar suzib yurib kunning yuzini to‘ssa, olamni zulmat qoplaydi. Goho quyosh nuri ko‘ksini qitiqlaganday qora bulut o‘ynab chiqib, chopqillab qolsa, chaqmoq chaqqandek olam yuzi yarq etib ketadi. Quyosh bilan bulut yerning husni jamolini ko‘rishga talashganday shu’la bilan ko‘lanka to‘qnashib, bahslashib o‘ynab, jonni qitiqlaydi, zavqni qo‘zg‘atadi.

Qora uy yonida aravaning o‘qini moylayotgan Qo‘siboy osmonga ilkis-ilkis qarab:

– Bu yilgi bahordan buyon oradan kun o‘tmay, osmon qovog‘ini uydi-da qo‘ydi-yay. Bugun ham bir to‘polondan xabar bormikin, har qalay? Tunov kungiday dovul uyingni ko‘tarib ketmasin. Beldov arqonlarini mahkamroq bog‘laysang-o! – deb tayinlab gapirgan edi, ichkaridan ayol kishining tovushi chiqdi:

– Qo‘limdagi piltani to‘ldirib olayin, hozir chiqaman...

Shu payt quyun ko‘tarilib, dovulning dastlabki jarchisiday ovul ustini supirib o‘tdi. Chang-to‘zonni aylantirib uchirib borayotgan quyun qo‘sh ho‘kizini qo‘ltig‘iga qisib olib ketadigandek Qo‘siboy qo‘raga qarab yugurdi. Qo‘siboy Ochamayli urug‘ining Saqiy tarmog‘idan. Moldan ikki sigiri bilan buzoq-tanalarini qo‘shganda besh-olti bosh qora moli, yilqidan bir g‘unon bilan qulunli biyasi, kuchli moldan ikki ho‘kizi bor, o‘rtamiyona xo‘jalik. Shu o‘rtaholdan ham pastga tushib ketaman degan hadikda yurgan Qo‘siboy bultur o‘n uyli saqiylarga bosh bo‘lib Bo‘zatovga chiqdi.

Qo‘siboyga otasidan qolgan davlat foyda bermadi. Otasi o‘limi oldidan to‘ng‘ich o‘g‘li To‘reboy bilan kenja o‘g‘li Qo‘siboyga moldan, yilqidan, uy-ro‘zg‘or buyumlaridan teng meros bo‘lib bergan bo‘lsa-da, buning qo‘rasi kamaysa-kamaydiki, lekin tuyoqqa tuyoq qo‘shilmadi.

Egizdan sakkiz qilib, mollarning boshini ko‘paytirishga yoshlikdan harakat qilmadi. Mehnatga layoqatsiz, ishyoqmas bo‘lib o‘sgan boy bolasi yo‘rg‘aning belida qaqqayib yurganida bir kuni qo‘radagi molning kamayganini bilib qoldi. Otasining rozi-rizochilik so‘rashayotganda aytgan vasiyati esga tushib, mol-holining kam-ko‘stini to‘ldirishga harakat qilgani bilan yo‘qning o‘rni bor bo‘lmadi.

Yoshlikda maktab mullasi yodlatgan kitoblarni oldiga yoyib, shariat ishlari bo‘yicha shug‘ullanib ko‘rdi. Mulla ko‘pligidanmi yoki “ruhi” yetmadimi, xullas, Qo‘siboyning bu ishi ham molni ko‘paytirishga foyda bermadi. Oxiri qo‘sh ho‘kizni boqib, dehqonchilikka unnadi.

“Shu o‘rta holimdan ham mahrum bo‘lib, boy eshigiga giriftor bo‘lamanmi?” deb to‘qson turli to‘lg‘onib yashardi...

Ob-havoning avzoyiga xavotir bilan qarab, tashvishlangan Qo‘siboyning esiga o‘g‘li tushib, uyda o‘tirgan ayoliga:

– Hoy, xotin! Anavi Ajiniyozing keldimi? – deb qichqirdi.

Nurjamolning qulog‘i qo‘ng‘iroqdek zingillab, pilta²sini tashlay sola turilgan eshik³dan quyoshga qarab edi, bolasining maktabdan keladigan vaqti o‘tib borayotgan ekan. Ayol nima deb javob qaytarishini bilmay shoshib qoldi.

AJINIYOZ

Romandan parcha



Karamatdin SULTONOV

– Aji-ni-yoz... Voy-voy, sho‘rimay! – Nurjamol qo‘lini tizzasiga urib, teskari qarab, labini tishladi. – Avliyoday qaynog‘amning otini aytib qo‘yibman-g‘o‘y, hah, anqov boshim-a! Odamni hovliqtirib o‘ldirasiz-ey, – deb “sizdan bo‘ldi” deganday tashqaridagi eriga⁴ gina qildi.

Kulgidan qurash⁵i yalp-yalp etib silkinib o‘tirgan Qo‘siboy “bir utdimmi”⁶ deganday xotiniga hazillashdi.

– Nega meni ayblaysan. O‘zingning befahmligingni ko‘rmaysanmi? Erkaklarning otini kayvoni, yoshi bir joyga yetgan ayol aytganida kecha tushgan kelinlardan ne umid? Qo‘y endi, bolangni ayt!

– Oq jigitmi? “Maktabdan chiqqandan so‘ng Oxun yaznaning uyiga boraman” deb edi. Bolg‘ali ovuliga qayrilgandir. O‘tov egasi bo‘lishga yaqinlashib qolgan bola-ku, yuraversin-da...

– Sen shunday deb turganingdan so‘ng bola yugansiz toyday bevosh bo‘lib ketadi. Ona ham “qayt” deb turmasa, birgina otaning gapini olarmidi? Odobsiz bo‘lib o‘sadi. Tunov kuni mullaga yuborgan bir dasturxon nonni oldidan “Haq, suf!” deb qo‘lini ochib chiqqan qalandarlarga berib yuboribdi.

– Nima qilasiz endi tergayverib, og‘asi, – dedi Nurjamol erini chalg‘itishga urinib. – Katta o‘g‘lingiz Matniyozning ko‘ngliga xudoyim o‘qishga mehrni solmadi. “Mulla qilaman” deb shuncha urib-so‘kdingiz. Nima bo‘ldi? Mana bu o‘g‘lingizni yomon so‘zdan, yomon ko‘zdan saqlasin, bolalarning ilg‘origa o‘xshaydi

– Ey, qaydam... – deb Qo‘siboy ichidan bolasini yaxshi ko‘rib tursa ham ayolining oldida sir boy bergisi kelmay, ikki-uchli javob qaytardi.

Xuddi shu paytda maktab mullasi Yesbergen kelib, eshagidan tushdi. Qo‘siboy o‘rnida tura sola yugurib, ikki qo‘llab salomlashdi-da, eshakning chilviridan ushladi. Qo‘siboy eshakni qo‘raga joylashtirayotganda Yesbergen:

– Assalomu alaykum! – deb ming‘irlab uyga kirib ketdi.

Nurjamol qo‘l qovushtirib, mulla to‘rga chiqib o‘tirgunicha tik oyoqda ta’zim qilib turdi.

Omon-esonlik so‘rashgandan keyingina Nurjamol bir tizzasiga iyagini qo‘yib o‘tirib, yuzini lav⁷dan ko‘ylagining hilpillagan uzun yengi bilan berkitib, mehmonga ko‘z qirini tashladi. Bir qaragandan tushunadigan ayol bir g‘alati gapni olib kelganini sezib, zimdan hadiksiradi. Sovuqqina kayfiyat bilan o‘rnidan turib, choy qo‘yishga unnadi. Ikki qulog‘ini Yesbergenning hangomasiga tutdi.

– Qo‘siboy, manov bolang noinsof bo‘libdi! – Yesbergen achchig‘idan bo‘g‘ilib, og‘iz-jag‘ining qat-qat ajinli, qonsiz etlari titrab, “Uh!” dedi. Boshidagi oq sallasini ko‘rpacha ustiga chalqancha qo‘yib, ichidagi terdan qorayib ketgan taqyasini olib boshiga kiydi. So‘ngra belidagi belbog‘ini yechib, ikki-uch qavat choponining orasidan yaproqday qog‘ozni olib, Qo‘siboyga uzatdi.

Qo‘siboy qog‘ozni qo‘liga olib, ozgina tikilib turdi-da “piq” etib kulib yubordi. Bu kulgidan Yesbergenning chaqchaygan ko‘zlari chatnab ketdi. Qo‘siboy ichidan: “Mulla ham bir jilmayar...” – deb edi, u qaytanga xafa, qalampirday qizargan iymak burnining ustidagi ko‘k ko‘zlari bilan ajabtovur qaradi. Qo‘siboy darhol kulgisini tiyib, ranjigan kishiga o‘xshab mullaga qaradi.

– Gap bunday... – dedi Yesbergen lablarini burishtirib, – qarg‘ayin deb edim, seni ayadim. Qamchilayin deb edim, kuchim yetmadi, qochib ketdi.

– Rostdan ham shuni yozibdimi? – deb Qo‘siboy qog‘ozga qarab ishonmayroq o‘tirdi.

– Shul, sening bolang yozib, bolalarga ko‘rsatib yurgan ekan. Qo‘lidan oldim. Aynigan mullaning oqibati poraxo‘r yo shoir bo‘ladi. Hamma hunarni quritib, endi qo‘shiq yozib yuribdi.

Qo‘siboy allaqancha vaqt o‘zini noqulay his qilib o‘tirdi. Qog‘ozga qarasa, kulgisi keladi, mullaga qarasa, ranjiydi.

– Yopirim-ay! Shu yozgan ekanmi? – deb qog‘ozni ochib, ifodali o‘qidi.

Ol, desa xush bo‘lar ko‘ngli mullaning,
Ber, desa tark etar amrin Olloning.

Quloq-burni butun kelsa kallaning lxlos bilan duo o‘qishin ko‘ring.

– Taqsir, bu katta shoirning so‘ziga o‘xshaydi-ku...

– Sening bolang ham kichkina emas, – deb to‘nqillab Yesbergen yuzini teskari o‘girdi. – O‘n besh yoshida o‘tov egasi bo‘ladi. Endi uni qaytadan beshikka belaysanmi?! Bolalarning oldida qanday obro‘yim qoldi! Bugundan boshlab maktabga bormasin. Men qozi raisga arz qilaman.

– Qulluq, taqsir! – deb cho‘chib tushdi Qo‘siboy. – Bir marta jahldan tushing, kechiring endi, mulla aka! Men bolani sizga: “Suyagi meniki, eti sizniki, quravering, tanasida joni qolsa bo‘ldi”, deb berib edim. Siz ham, biz ham urib, to‘g‘ri yo‘lga solaylik. Qoziga borib aytsangiz, bizni tiriklay yerga ko‘masiz... – Hozirgina ichida: “Bu arzimagan bir hazil-ku”, deb o‘tirgan Qo‘siboy mullaning g‘azabini ko‘rib, ustiga ustak qozining nomini eshitgandan so‘ng yalinib qo‘yaverdi. – Qahringizdan kecheng... Taqsir!

Qo‘siboy qo‘lini cho‘ntagiga tiqib, ikki tillani mullaning oldiga qo‘ydi.

– Manavini choy puli qiling, taqsir! Bu gap shu uyda, ikkovimizning oramizda qolsin!

Mulla birpas ro‘yxushlik bermay o‘tirgach tangani yon cho‘ntagiga soldi.

– Yaxshi! Faqat sen uchun afv etdim. Biroq u endi maktabga bormay qo‘ya qolsin. Men endi uning yuzini ko‘rishni xohlamayman.

– Taqsir, o‘zim adabini beraman uning, unday qilmang!

– Yo‘q! “Izzai mo‘min – harom!”⁸ – deb Yesbergen o‘rnidan turdi.

Qo‘siboy uning ortidan tashqariga chiqqanda ham, xayrlashayotganda ham qayta-qayta yalindi, lekin mulla fikridan qaytmadi.

Ko‘zlarini yerga tikib uyga kirgan Qo‘siboyning ahvolini ko‘rib, Nurjamol kuyindi:

– Nega yalinaverasiz? Tag‘in bitta qo‘yingizni o‘zlashtirib olaman deb turibdi. Shum bo‘lmagan mulla bormi? Ertaga bir echki olib borib bering, bolangizni opichlab yurib o‘qitadi...

Qoraqalpoq tilidan
Rustam MUSURMON
tarjimasi

IZOHLAR:

¹Seng – daryolar, ko‘llar, dengizlarda kuz va bahorlarda qotib, yana eriganda oqib yuruvchi bo‘lak-bo‘lak muzlar to‘dasi, muzning yorilib oqishi.

²Pilta – paxtadan yigirib tayyorlanadigan ingichka pilik, qorachiroq.

³Turilgan eshik – usti qamish yoki kigiz bilan yopilgan uyning eshigi qamish chiydan to‘qilib, xuddi ko‘ylak yengini shimargandek qayirib ko‘tarib qo‘yiladi.

⁴Urf-odat bo‘yicha, ayol o‘z bolasining, qaynog‘alarining ham ismini aytib, chaqirmaydi.

⁵Qurash – katta cho‘girma.

⁶Utdimmi – yutdimmi. Janubiy viloyatlar shevasida ham “yutdim” degan so‘z “utdim” deb aytiladi.

⁷Lavdan – yupqa ipak gazlamadan tikilgan ko‘ylak.

⁸Mo‘min odamni izza qilgan kishi gunohkordir.

JAHON AYVONIDA



O‘zbekistonning Qozog‘iston va Tojikiston bilan chegarasidan ID-karta orqali o‘tish mumkin bo‘ladi. Hozirgi vaqtda fuqarolar Qirg‘izistonga ID-karta bilan bemalol borib-kelmoqdalar. Endi shunday tartibni Qozog‘iston va Tojikiston bilan ham joriy etish rejalashtirilgan.

SpaceX oltinchi marta Starship raketasini sinovdan o‘tkazdi. Parvozni Donald Tramp ham kuzatib bordi. Starship hozirgacha qurilgan eng qudratli va eng baland kosmik kema bo‘lib, 150 tonnagacha yukni ko‘tarishga qodir. Kosmik kema prototipiga ega tashuvchi raketa Texasdagi Boka-Chika kosmodromidan start oldi.





Islomobod Oliy sudi Pokistonning sobiq bosh vaziri va “Adolat harakati” muxolif partiyasi asoschisi Imron Xonni garov evaziga ozodlikka chiqardi. Sud qaroriga ko‘ra, Imron Xon ikki million Pokiston rupiysi miqdorida garov qo‘yish sharti bilan ozod qilingan. Eslatib o‘tamiz, joriy yilning yanvar oyida Imron Xon va uning rafiqasi Bushra Bibini korrupsiya ishi bo‘yicha 14 yillik qamoq jazosiga hukm qilgan edi.

Buyuk Britaniyada o‘n olti yoshgacha bo‘lganlar uchun ijtimoiy tarmoqlar taqiqlanishi mumkin. Texnologiyalar kotibi Piter Kaylning aytishicha, mazkur qonun bolalarning onlayn xavfsizligini ta’minlash uchun xizmat qiladi.





Dubayda 300 kilogramm og‘irlikka ega bo‘lgan oltin quymasi tayyorlandi. Bu haqda 20-noyabr kuni Dubay amirligi matbuot xizmati xabar berdi. “Emirates Minting Factory” kompaniyasi tomonidan tayyorlangan quyma taqdimoti Dubai Metals Konferensiyasining 2024-yilgi yopilish marosimida bo‘lib o‘tgan. Ushbu mahsulot tarixdagi eng katta oltin quymasi sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgani ma’lum qilindi.

YANGI NASHR

YANGICHA DUNYOGA o‘zgacha nazar

Yaqinda “Akademnashr” nashriyoti tomonidan o‘n besh nafar yosh ijodkorning sara asarlari “Izlam” turkumida chop etildi. Undan sakkizta she’riy, beshta nasriy va bittadan publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar guldastasi o‘rin olgan.

Biz turkumga kirgan sakkiz nafar iqtidorli shoir ijodini tahlil etishga jazm qildik. Ularning ijodini tutashtiruvchi nuqtalar umumiy fikr, motiv va mavzular bo‘lsa-da, uslubda bir-biridan farq qiladi. To‘plamlarning umumiy jihati shundan iboratki, ularning barchasi bugunning shoirlari, bugunning muammosini, jamiyatimizning og‘riqlarini, yurtdoshlarimizning ichki sezimlari, quvonch-u tashvishlarini birdek his etadi.

Shu ma’noda, XXI asrning birinchi choragidagi O‘zbekistonning poetik manzarasini mana shu sakkiz kitob orqali ko‘rish mumkin.

SHOIRNING TAVALLOSI

Mansur Jumayevning (oxirati obod bo‘lsin) fergantrop odamiga savollari, “bir yurak yurtiga” izhorlari, tavba-yu tazarrularga burkangan misralari – nafaqat shoirning, balki har birimizning ko‘nglimizdan kechishi mumkin bo‘lgan tuyg‘ular. Hammamiz ham ilk muhabbatga duch kelganimizda sevgining aqlga sig‘masligini tan olganimiz sir emas. Onamizga bag‘ishlangan “Oq maktub”imiz ham qalbimizda yashirin. Ammo qani bu tuyg‘ularni shoirdek ifoda etolsak. Shuning uchun ham Mansurning she’rlari yurak-yuraklarga yetib boradi. Aytmoqchi bo‘lganlarimizni tilimizga chiqaradi: quvontiradi, qayg‘uga ko‘madi, kerak bo‘lsa, yig‘latadi...

Shoir she’rlarida ilohiy ishq vasfi, tasavvufiy ifodalar ustunlik qiladi. Uning “aqlga sig‘magan” sevgisi Yaratganning yaratig‘iga emas, balki uning O‘ziga ekani sezilib turadi. “Tangriga maktublar” turkumida esa bu holat yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

BETAKROR RUHIYAT

Najmiddin Ermatov ham bugun haqida yozadi, shoirona nigohi bilan biz yashab turgan jamiyatni kuzatadi, idrok etadi va o‘zining poetik tafakkuri mahsulini qog‘ozga to‘kadi. Ammo uning bu to‘kimlari turli ramz va ishoralarga to‘la, ma’nolar ko‘lami keng, o‘tmish va kelajakni ham o‘zida birlashtiradi.

Kitob bejiz “Turon sog‘inchi” deb nomlanib, “Jon”, “Qon” va “Shon” kabi turkumlarga ajratilmagan. Undagi ishoralarni anglash uchun to‘plamni to‘liq o‘qib chiqish talab etiladi. Kitobning ort muqovasida berilgan yomg‘ir haqidagi she’r esa shoirning badiiy mahorati mahsuli, xolos. Shoirning bir qator asarlaridagi ruh, kayfiyat, g‘oya va keskin fikrlar kitobning tom ma’nodagi yukini belgilab beradi.



HAMNAFAS SHE’RIYAT

Adabiyotda ijodkor juftliklar ko‘p bo‘lmasa-da, uchrab turadi. Hamid Olimjon va Zulfiya, Said Ahmad va Saida Zunnunova, Abdulla Qahhor va Kibriyo Qahhorova... Bugungi zamonimizning ham ana shunday baxtli juftliklari – Shahriyor Shavkat va Nozima Habibullayeva shular jumlasidandir. “Izlam”da ikkala ijodkorning kitobi bir butun holda nomi ham, shakli ham monand chop etilgan. Chunki ikki ijodkor hayotda ham, ijodda ham hamnafas. Bir-birini to‘ldiradi, boyitadi. Ajabmaski, o‘zbek adabiyotini ham birgalikda abadiy boyitsa... Ularning she’rlarini navbat bilan o‘qisangiz, lirik qahramonlar xuddi lapar aytishayotgandek bo‘ladi. Bir-biriga aytgan izhorlarini, aytimlarini kitobga jam aylagandek...

SHAHRIYOR: *Siz yomg‘irni yaxshi ko‘rasiz,*
Men Betxoven emasman, afsus,
Ko‘zingizda notalar suzar,
So‘z oqadi tomirimda, So‘z!

(“Siz yomg‘irni yaxshi ko‘rasiz...” she’ridan)

NOZIMA: *Sukunatga tortilgan taroq,*
Tun yoyilar sochlarimdek tim.
Derazamning ostida nogoh
Serenada kuylayotgan kim?

(“Sukunatga tortilgan taroq...” she’ridan)

Ammo kitoblar faqatgina izhordan iborat emas. Ularda Shahriyorning og‘riqli savollari, yuragingizga to‘g‘ridan to‘g‘ri yetib boradigan o‘tli satrlari, Nozimaning professional musiqachi sifatida tovush ohangdorligini, jilvasini teran his etarak qog‘ozga to‘kilgan inja tuyg‘ulari, falsafiy kechinmalari, goh isyonkor, goh muztar holatdagi sirli sezimlari mujassam.

Shahriyorning mumtoz adabiyotdan sug‘orilgan, xalq og‘zaki ijodidan ta’sirlangan go‘zal lirikasi bilan birga, ijtimoiy mavzudagi she’rlari ham ko‘p. Ularda bugungi davr muammolaridan tortib, zamonamiz qahramonlarigacha aks etadi.

TANISH USLUBDAGI YANGI BITIKLAR

Rahmat Bobojonning she’rlarini o‘qiy turib Abduvali Qutbiddinga “Ro‘baro‘” kelgandek bo‘ldim. Shoirga bag‘ishlangan “Yig‘layotgan Osima” turkumi esa aynan o‘sha ohang, o‘sha tuyg‘ular va o‘sha og‘riqlarni o‘zida aks ettiradi. Ammo dard yangi, uni his qilayotgan lirik qahramon boshqa. Shu sababli ham “bir tishlam iztirob, bir bo‘lak qayg‘u”ni o‘ziga nasiba qilgan shoirning ming-ming she’rlar orasidan saralab to‘plagan bu guldasta to‘plamida uning o‘zigagina xos ovozi sezilib turadi.

Shoir dunyoni o‘zgacha ko‘radi, o‘zining dunyosi ichra yashaydi. Bu uning tashbehlarida, tazod va mubolag‘alarida namoyon bo‘ladi. “Ishq – ruhimga tutilgan maydir”, “Dil – uzilgan bir parcha mato”, “Oy – osmonning kulgichi”, “O‘zimga alvidom – senga salomim”, “Ko‘ksimda qiqirlar yuragim”. Bunday quyma satrlar o‘z-o‘zidan yaralmaydi. Yuksak iste’dod va iqtidorning, qolaversa, chuqur izlanishlar hosilasi o‘laroq paydo bo‘ladi.

DARYODAGI YELKANLAR

Suhrob Ziyoning “Ko‘ngil yelkani”ni o‘qib, hali hayratlarim bosilgani yo‘q edi. Bu yelkan hilpirab borayotgan “Daryo” esa yanada hayratlarga to‘la, ajoyib hissiyotlar va toshqin mavjlar bilan limmo-lim.

She’r mutlaq muzaffar zamon oldida,
she’r makon izniga bo‘ysunmas.
Bir asr ilgari yotlar belgilab
ketgan sarhadlarni tap tortmay buzib,
u dadil hayqirar “Turkistonman”, deb.

U she’r haqida shunday o‘ylaydi. “Shoir – bir kishilik millat” sifatida xalq qiyofasini o‘zida aks ettirishi lozimligini idrok etadi. Shuning uchun ham Suhrobning she’rlarida odamlar faqat baxtiyor ko‘rsin deb yomg‘ir yog‘ganda yig‘laydigan, bu dardsiz dunyoda yuragini asrab qolishga urinayotgan, el kelajagi haqida xayol surayotgan qahramonlar gavdalanadi.

Shoirdagi ruhiy erkinlik, hech kimga bo‘ysunmaslik uning she’rlariga ham ko‘chgan: turli vazn va usulda yoza oladi. So‘zni marjondek terib, goh go‘zal shakl yaratsa, goh ulardan “daryo to‘lqinlari”-ni hosil qiladi. Eng muhimi, qofiya va vaznning turli yo‘sinda tovlanishlari ma’noni yanada kuchaytiradi. “Nisbiylik” she’ridagi shaklga e’tibor bering:

Qush ham bizdan hotamroq,
chumoli ham bardamroq,
itlar do‘stga hamdamroq,
bular bizdan odamroq –
qanot yolg‘on, dum yolg‘on.

Vujud – zindon,
jon – tutqun,
yurak – o‘pqon,
qon – tutqun,
bir ruhi nolon tutqun,
tan – suyakustun – yolg‘on.

She’r boshdan-oxir mana shunday shiddatli ohangga qurilgan. Na qofiya, na ma’noga zaxa yetgan. Quyma satrlar, quyma she’r mana shunday bo‘ladi, aslida. Kitobga kirgan she’rlarning deyarli hammasining o‘z ohangi borligi sizni hayratda qoldiradi. Tig‘iz tashbehlar, qator she’riy san’atlarga yo‘g‘rilgan tushunarli, sodda ifodalar o‘quvchini o‘ziga maftun qiladi-qo‘yadi.

ADABIYOTNING VAZIFASI

Jaloliddin Sayyid juda sinchkov ijodkor. Oddiy hayotiy voqeliklardan, biz kundalik hayotimizda ming marta ko‘rib, e’tibor qilmagan jihatlarimizdan o‘ziga xos falsafa topa oladi.

Shoirning “Cho‘pon bobo o‘giti”, “G‘azab”, “Yechim”, “Javobgarlik” kabi qator she’rlarida hayotiy saboqlar, didaktik uslub mujassam.

Joningni ayama,
(necha jon berdik)
Zamin kaftin yoyar, magar yiqilsang...
Haq uchun, or uchun, jang qilib, erdek
O‘lmoq ham bir bo‘lak mazali, bilsang.

KO‘NGILDAN TOSHGAN HISLAR

Bugun o‘zbek ayollar she’riyati bir qadar yuksalganini, poetik tafakkuri oshganini “Izlam” to‘plami misolida ko‘rishimiz mumkin. Ayollarning dardlari, og‘riqlari, his-tuyg‘ulari, kechinmalari she’rga solinib, o‘ziga xos uslubda taqdim etilmoqdaki, dunyo adabiyotiga bo‘ylagulik she’riyat maydonga keldi, deb bemalol aytsak bo‘ladi. Gulhayo Anorova ijodini kuzatib ana shunday xulosaga kelish mumkin. She’riyatni tuyg‘ular ifodasi sifatida qaraydigan bo‘lsak, shoira bu ishni qoyilmaqom qilib bajarmoqda. O‘z uslubini yaratish va manziliga yetish ishtiyoqida dadil odimlamoqda:

...Otam yelkasiga minib o‘tkazgan
Umrini tushida ko‘radi ketmon.

Kitob nomining ma’nosini topish uchun ham lug‘at titishingizga to‘g‘ri keladi. “Avron” o‘zbek tilining izohli lug‘atida “toshqin” degan ma’noni anglatishi aytiladi. Bu so‘z eski o‘zbek tiliga forscha “avaron”dan o‘zlashgan bo‘lib, hozir deyarli ishlatilmaydi. Shoirning yozilmagan vazifalaridan biri ana shunday unut so‘zlarni qayta jonlantirish, muomalaga kiritish ham hisoblanadi. Shoira yuragiga sig‘magan, undan toshib chiqqan satrlarni qog‘ozga to‘kadi va bu toshqin boshqa qalblarga hayot suvini yetkazadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu sakkiz to‘plam misolida o‘zbek she’riyatida iste’dodli yangi avlod yetishib kelayotganini ko‘rish mumkin. Albatta, “Izlam”ning birinchi faslida ham shunday ijodkorlar jamlangan edi. Ularning ijodi hali qanchadan-qancha ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo‘lishiga ishonamiz.

Bekzod IBRAGIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O‘QIDINGIZMI?

TARIX ILMIDA YANGI SAHIFA

Xalqaro Amir Temur jamoat fondi Sohibqiron Amir Temur va tariximizga oid nodir kitoblarni nashrdan chiqarib, o‘quvchilarga tuhfa qilishda davom etmoqda. Yaqinda fond tomonidan bosib chiqarilgan Sharafuddin Ali Yazdiyning mashhur “Zafarnoma” asarini mamnuniyat bilan o‘qigan edik. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, yangi kitoblar ham dunyo yuzini ko‘rdi.



G‘iyosuddin Ali. “Hindiston yurishi kundaligi”

Sohibqiron Amir Temur hayotligida u haqda yozilgan kitoblar ko‘p emas. Rasmiy tarixda ular ikkita hisoblanadi: birinchisi – G‘iyosuddin Ali qalamiga mansub “Hindiston yurishi kundaligi” bo‘lsa, ikkinchisi – Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridir. Ularning ikkisi ham bevosita Amir Temurning topshirig‘i bilan yozilgani e’tiborlidir. Shu choqqacha tarixchi G‘iyosuddin Alining o‘zbek o‘quvchilariga ma’lum bo‘lmagan “Hindiston yurishi kundaligi” asari ilk marta Xalqaro Amir Temur jamoat fondi tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etildi.

G‘iyosuddin Alining “Hindiston yurishi kundaligi” tarixiy asari Sohibqiron topshirig‘i bilan yozilgan birinchi asar sifatida ahamiyatlidir. Boshqacha aytganda, bu – dastlabki tajriba edi, bu mavzu hali ochilmagan qo‘riq bo‘lib yotardi. Amir Temur Ko‘ragonday qudratli Jahongir, ulug‘ siymo ko‘z oldida uning hayoti va faoliyati haqida qalam tebratish, so‘z aytish, yozish uchun, avvalo, katta ishonch, yorqin salohiyat, olmosday zehn, jur’at va jasorat zarur edi. Aytish kerakki, G‘iyosuddin Ali shunday jasoratga, kuchga ega ekanini namoyish qila oldi.

Zahmatkash olima, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Ra’no Qobulova G‘iyosuddin Alining “Hindiston yurishi kundaligi” asarini o‘zbek tiliga o‘girish ustida uzoq yillar mehnat qildi, sidqidildan ter to‘kdi. Shu tariqa bugungi kunda ushbu nodir asar o‘zbek xalqining mulkiga aylandi. Bu juda quvonchli hodisadir.

Mas’ul muharrir, so‘zboshi muallifi – O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali.

Bo‘riboy Ahmedov. “O‘zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari”

Xalqaro Amir Temur jamoat fondi tomonidan akademik Bo‘riboy Ahmedov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan uning “O‘zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari” asari ham nashrdan chiqarildi.

Kitobda o‘zbek zaminida tug‘ilib voyaga yetgan, dunyoga dong taratgan sakson nafar tarixshunos, geograf olimlar hayoti, ilmiy faoliyati haqida muxtasar, aniq ma’lumotlar jamlangan. Allomalar ichida Muhammad Xorazmiy, Narshaxiy, Beruniy, Koshg‘ariy, Nasafiy, Zamaxshariy, Sam’oniy, Mirzo Ulug‘bek, Bobur, Abulg‘ozixon, Abu Tohirxoja, Ogahiy, Niyoz Muhammad Ho‘qandiy va boshqa ko‘p siymolar nomlarini uchratish mumkin. Kitobning ikkinchi qismidan Nizomiy Aruziy Samarqandiy, As-Saolibiy, Ahmad Buxoriy, Davlatshoh Samarqandiy, Mutribiy Samarqandiy, Nisoriy, Maleho kabi olimlar haqidagi ma’lumotlar ham o‘rin olgan.

Mazkur kitob o‘quvchilarimiz, ayniqsa, yosh tarixchilarimiz uchun nihoyatda zarur va qimmatli manba vazifasini o‘tashi shubhasiz.

Nashr uchun mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi – O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali.

M.MIRZAG‘ANIYEV,
Xalqaro Amir Temur jamoat fondi xodimi

MULOHAZA

MA’NAVIY HALOKAT QANDAY BOSHLANADI?

Katta ofatlar ham arzimas belgilardan, ulkan talofotlar ham kichik yo‘qotishlardan boshlanadi. Eng dahshatli halokatlar ham kichik e’tiborsizlikning oqibatidir.

Keling, tarixda kechgan bir tabiiy ofatning yashirin belgilariga e’tibor qarataylik. 1919-yilda yonginasida vulqon uxlayotgan Yava oroli aholisi odatdagidek tinchgina kun kechirardi. Ular mudrab yotgan vulqon ostida ulkan to‘fon junbishga kelayotganini xayoliga ham keltirishmagan. Xuddi hozirgi axborot va madaniyat olamida zimdan mafkura qozoni qaynayotganidek...

Mutaxassislar orol ahlini vulqon uyg‘onishi ehtimolidan ogohlantirishdi. Xuddi bugun ayrim olimlarimiz, siyosatchilarimiz ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlar, turli chiqishlar, ommaviy axborot vositasidagi turli ko‘rsatuvlar-u filmlar va dunyodagi boshqa axborot xurujlari ostida ko‘rinmas g‘arazli kuch to‘planayotgani xususida bong urishganidek.

Lekin odamlar bunday xavotirli gaplarga ishonmay beparvolikka berildi. Chunki vulqon krateridan har galgidek tutun chiqmayotgan, osmonga kul ham otilmayotgan edida. Xuddi hozir ham hech kim bizga oshkora: “biz sizlarning, farzandlaringizning ong-u shuuriga hujum qilmoqchimiz”, deya o‘z maqsadini ayon qilmaganidek...

Yava aholisi uchun ana shu beparvolik juda qimmatga tushdi. Ya’ni, o‘shanda vulqon ustida to‘plangan katta hajmdagi suv vulqon og‘zidan tutun va kul otilishiga yo‘l bermagan ekan. Bu holat esa krater og‘zida bug‘ qozonini paydo qilgan va katta bosimni keltirib chiqargan. Suv qizib, kuchli portlashga sabab bo‘lgan.

O‘shanda bu e’tiborsizlik nari borsa besh ming kishining umriga zomin bo‘lgandir. Biroq hozirgi “mafkura vulqoni” hudud tanlamay, yanada kengroq qanot yoyishi va butun bir yoshlar ommasini, hatto millatni halokatga olib borishi hech gap emas. Ko‘pchiligimiz bu xatar Yavadagi vulqondan yuz karra, ehtimol ming karra xavfliroq bo‘lishi mumkinligini his qilsak-da, baribir e’tiborsizlikka berilamiz.

Bolaligingizni eslang, hurmatli kattalar! Agar televizor yoki hayotda mushuk sichqonni yeb qo‘yganini ko‘rsangiz, etingiz seskanardi. Bugun jajji bolalar ko‘rayotgan multfilm va o‘yinlarga bir qarang. Masalan, yaqinda bir kompyuter o‘yinini ko‘rib qoldim. Uni uch yoshli bola ham bemalol o‘ynay oladi. Qo‘g‘irchoq-chaqaloq va uning atrofida ignalar chayqalib turibdi. Bola qo‘li bilan ignani chaqaloqqa yo‘naltiradi va igna badaniga sanchilganida sho‘rlik chaqaloq jonholatda chiyillaydi. Bola esa qiyqirib kuladi. Endi tasavvur qiling: aqlini tanib-tanimasdan birovga igna sanchishdan zavq olgan go‘dak erta-bir kun kiprik qoqmasdan o‘zgalarning hayotiga chang solmasligiga kim kafolat bera oladi?

Ota-bobolarimiz bunday kimsalarni “diydasi qattiq” deb aytishardi. Qondan diydasi qotgan odam qondan seskanmas emish. Kaltakdan diydasi qotgan odamga kaltak ta’sir qilmas ekan. Endi diydasi qotganlarning bir guruh bo‘lib to‘planishini tasavvur qiling.

Bugungi kunda insonlarga nisbatan vahshiylik, xunrezlikni zarracha seskanmay amalga oshirayotgan to‘dalar aslida ana shu diydasi qotish orqali shakllanmadimikin? Masalan, respublikamizda o‘tgan yili voyaga yetmaganlar o‘rtasida 3,5 mingta jinoyat sodir etilgan va bu ko‘rsatkich avvalgi yilga nisbatan 15,6 foizga oshgan. Ulardan 74 nafari qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish, 12 nafari qasddan odam o‘ldirish va 10 nafari odam o‘ldirishga urinishda ayblangani – bu bolalarning xuddi biz ta’kidlagan kabi “diydasi qotgan”ini isbotlamaydimi? Eng achinarlisi, bu bolalar bor-yo‘g‘i 13-17 yosh orasida! Umumiy jinoyatlarni sodir etganlarning 2280 nafari maktab o‘quvchilari, 315 nafari esa qizlardan iborat ekanligi barchamizni ko‘zimizni kattaroq ochishga undaydi.

Demak, bolalarimizni tarbiyalashda avvalo, ularni ota-bobolarimiz aytganidek, “diydasi qotish”dan asrashga jiddiy ahamiyat qaratishimiz zarur.

Endi axloqqa bo‘lgan xurujlarga e’tibor qarataylik. Ota-bobolarimiz buni “yuzdagi parda” deb atashgan. Odamlar ko‘rsatkich barmog‘ini yuzga surtib, uyat ishorasini ko‘rsatganida avvalo, yuzdagi ana shu ko‘rinmas hayo pardasiga ishora qiladilar. Har ne bo‘lsa ham mana shu ko‘rinmas pardani asragin, uni aslo yuzingdan yechma, deydilar.

Hozir chetdan kirib kelayotgan turli axborotlar, “tarbiya usullari”, zamonaviy “madaniyat” ko‘rinishlari, san’at va adabiyotning “duragaylashgan” mahsulotlari aynan ana shu ming yillik milliy pardaga chang solmoqda. Bugun qator telekanallarda efirga berilayotgan arzon-garov ko‘rsatuvlar, tok-shoular, serial va filmlar ham mafkuraviy xurujlardan himoyalanmagan.

Vulqon tutunini yopib turgan krater og‘zidagi suv kabi, bu mahsulotlarning g‘oyaviy ta’mini gohida ishlab chiqaruvchilarning o‘zi ham sezmayotganday, nazarimda. Bunga istagancha misollar keltirish mumkin. Shu o‘rinda men bir qarashda arzimasdek tuyulgan bir masalaga diqqatingizni tortmoqchiman. Bu – er-xotin va kelin-kuyovlar yotoqxonasining oshkora ko‘rsatilishi bilan bog‘liq. Ilgari bizda ota-onaning, uylangan farzandlarining yotog‘iga hatto kunduzi ham kirish uyat sanalardi.

Xususiy telekanallarda namoyish etilayotgan seriallar-u novellalarni ko‘ring: aksariyat hollarda er-xotinning suhbati aynan yotoqda suratga olinadi. Qaynonalar o‘g‘li va kelinining yotog‘iga bemalol bostirib kirib kelishaveradi. Nega?

Chunki chet el filmlarida shunaqa, butun voqealar, o‘zaro suhbatlar yotoqxonada kechaveradi. Yana ta’kidlayman: bu boshqa holatlarning oldida arzimas narsa-ku, deb e’tiroz bildirishga shoshmang. Bu – er-xotin munosabatlari mutlaqo parda ortida bo‘lishi lozim, degan qadriyatlarimizga ziddir. Voyaga yetib kelayotgan, ayniqsa, o‘smir yoshidagi bolalarning axloqiy qadriyatlariga putur yetkazadigan illat bu. 2023-yili yurtimizda 34 mingdan ziyod nikoh bekor qilingan bo‘lsa, o‘tgan 2024-yilning 10 oyi davomida ajrimlar soni 41 ming 583 taga oshib ketganiga mana shu axloqiy pardalarning ko‘tarilgani ham sababchi bo‘lmayapti, deb kim kafolat bera oladi?

Men kichkinagina bir misol keltirdim, xolos. Kundalik hayotimizda bunday “arzimas” holatlar esa, afsuski, qalashib yotibdi va ular e’tiborimizdan mutlaqo chetda qolmoqda. Bugungi mafkuraviy, g‘oyaviy kurashlar davrida yoshlarga arzimas ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har bir unsur siz-u bizning diqqat markazimizda bo‘lishi lozim. Bugungi mafkuraviy kurash maydonida hamma – “jangovor tayyorgarlikka ega” bo‘lgan odam ham, hech narsadan bexabar kishi ham birday mas’ul va javobgar sanaladi. Bu maydonda ma’rifat, ogohlik, anglamoq, tushunmoq – asosiy himoya qalqoni vazifasini o‘taydi.

Ogoh bo‘laylik: xuruj davom etayotir!

Shahlo AHROROVA,
Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti xodimi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

GURUNG

VAQT BARAKASI

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoir Eshqobil SHUKUR bilan suhbat



– Suhbatni kundalik turmushimizda uchraydigan holatlar haqidagi savoldan boshlasam. Ko‘pincha yosh avlod vakillariga aytilgan “o‘zbek tilida yoz, o‘z ona tilingda so‘zla” degan chaqiriqlarga duch kelamiz. Ammo qiziqsangiz, aynan o‘sha va’zxonlarning aksariyati bolasini ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablarga bermagan, oilada ham o‘zaro muloqot tili o‘zbekcha emas. Ommaga o‘rnak bo‘lgulik ilm-fan va madaniyat sohasi vakillarining jamoatchilik oldida zarur bo‘lmagan paytlarda ham fikrini rus tilida ifodalashga urinishiga ham ko‘p guvoh bo‘lganmiz. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

– Avvalo tilga hurmat elga hurmat bo‘ladi. O‘z tilini hurmat qilgan odam, vatanini hurmat qiladi, elini hurmat qiladi.

Masalan, mana shu nuqtayi nazardan kelib qarasak, siz aytgan misol juda xunuk holatda aslida. O‘zbek tiliga bepisandlik bilan qarab, “Ha, gapimni bir amallab, yumaloq yostiqdek qilib yetkazib bersam bo‘ldi-da”, degan qarash xalqqa, millatga nisbatan juda hurmatsizlikdir. O‘zbekistonda yashab turib o‘zbek tilini bilmaslik uyat sanaladi. Shu yurtni, shu tuproqni hurmat qilish kerak.

Men doim ikkita qatlam bilan gaplashishni yaxshi ko‘raman. Bittasi keksalar, bittasi yoshlar qatlami. Jamiyatdagi muhitni belgilaydigan ikkita qutb ular.

Bir narsani unutmasligimiz kerak. O‘zbek tilining ahvoli qanday bo‘lsa, xalq tafakkurining ahvoli ham shunday bo‘ladi. Bu xuddi tarozining ikki pallasiga o‘xshaydi. Til degani aslida tafakkurning shox tomiri.

– Ustoz, bir ijodiy uchrashuvda “Tezlikning orqasidan quvib ko‘p narsalarga ulgurmayapmiz. O‘zligimizdan uzoqlashib ketyapmiz” degansiz. Vaqtning barakasi nimaga bog‘liq, deb o‘ylaysiz?

– Vaqt haqiqatdan tezlashib ketdi. Men buni “Omochdan kosmik kemagacha” degan maqolamda ham aytdim. Odamzod omochdan traktorgacha kamida olti-yetti ming yil yurdiyov, balki undan ham ko‘pdir. Lekin traktordan samolyotgacha yurgan bo‘lsa, deylik oltmish yil yurdi. Balki undan ham kamroqdir. Shu ma’noda qarasangiz, tezlik xitobi juda zo‘r. Havas qiladigan darajada. Insonning aqliga, uning kuchiga, mo‘jizalariga boqib hayratga tushasiz. Lekin bir tomondan bu tezlik ma’lum ma’noda inson qalbining xotirjamligini yo‘qotib qo‘yyapti. Bir o‘ylab ko‘ring, odam nima uchun moddiy boylik to‘playdi, pul yig‘adi? Nima uchun karyera qiladi? Aslida bularning hammasi bir narsa – xotirjamlik uchun. Ammo bu yoqda million-million dollar puli bo‘lsa-yu, ko‘ngli notinch bo‘lsa uning kuni qursin. Hozir shunday vaziyat bo‘lyaptiki xotirjamlik yo‘qolib qolyapti. Betoqatlik juda avjiga chiqqan. Dunyo bo‘yicha tarqagan kasalliklarning bittasi shu deyman. Bunday qarasangiz sharoitlar juda zo‘r. Deylik XX asrda olti oyda boradigan joyiga hozir olti soatda yetib boradi inson. Bu sharoit degani. Lekin olti oyda borgan odamdan ko‘ra olti soatda borgan kishi notinchroq. Biz istagan xotirjamlik aslida odamning ichki ma’rifati, ichki madaniyati, qalbidagi tuyg‘ulari bilan bog‘liq ekan. Tolstoy aytganidek, taraqqiyot qilish kerak. Lekin bu insonning tuyg‘ularini boy berish evaziga bo‘lmasligi lozim. Taraqqiyot insonning aqli bilan birgalikda uning tuyg‘ulariniyam himoya qiladigan, parvarish qiladigan bo‘lmog‘i darkor. Shu ma’noda, qachonki bizda tuyg‘ular g‘ariblashsa yuqorida ta’kidlaganimdek, betoqatlik boshlanadi. Asl adabiyot Mahmud Koshg‘ariy zamonida qanaqa vazifani o‘tagan bo‘lsa, XXI asrda ham shuni bajaradi. Oradan yana ikki ming yil o‘tsada, asl adabiyotning vazifasi o‘zgarmaydi. U inson qalbini himoya qilishda davom etaveradi.

Qalb tarbiyasi degan narsa bor. Qalbni tarbiyalash adabiyotning juda katta vazifasi. Qalb tarbiyalandimi? Insonda hamma narsa tarbiyalanadi. Masalan, bitta narsaga e’tibor qilaman. Abdulla Qodiriyning kitobini olib shunday o‘qiyapsiz. Yoki bolangiz o‘qiyapti. Bolangiz-ku bolangiz, o‘zingiz tarbiyalanasiz o‘sha paytda. Sizga hech qachon Abdulla Qodiriy nuqib turib o‘rgataman demaydi. O‘z-o‘zidan, tabiiylik bilan tarbiyalaydi. Sahifama-sahifa qalbingizni, fikringizni tafakkuringizni, didingizni tarbiyalab boradi. Shuning uchun ham bu masalada kitoblarning qadri muhim. Yaqinda Ozod Sharafiddinovning bir gapini o‘qib, qoyil qoldim. Bolalar aynib ketyapti, yoshlar yomon bo‘lib ketyapti, deyapmiz. Zamon yomon bo‘lib ketyapti, nima qilishimiz kerak boshqa. Buni arzon va juda oson yo‘li bor. Hamma bolalarni kitobxon qilish kerak. Kitob o‘qishni o‘rgating boshqa ortiqcha xarajatlarning ham keragi bo‘lmay qoladi. Kitob o‘qiydigan bola u boshqacha bo‘ladi. Shuning uchun biz adabiyotning vazifasini har qanday vaziyatda ham esdan chiqarmasligimiz kerak.

– Mahmud Sa’diy shunday yozgan ekan: “Eshqobilning xususiyati shundaki, kam gapirib, haqiqiy ish qiladi. Shuning uchun uning “Boboso‘z izidan” kitobi madaniyatimizda sezilarli voqea bo‘ldi deb hisoblashga arziydi”. Shu kitobning yaratilish tarixi haqida so‘zlab bersangiz.

– “Boboso‘z izidan” kitobi – mening armonim. Men bu kitob ustida 20 yildan ortiq ishladim. Lekin chiqishi 2018-yildan boshlandi. Juda ko‘pchilikdan yaxshi fikrlar eshitdim. Ona tilimizdagi ko‘p so‘zlar unutilib, iste’moldan chiqayotgani ijodkor sifatida menga qattiq ta’sir qilgan o‘shanda. Bu so‘zlar ona tilimizning xazinasidir. Bizning vazifamiz – ona tili xazinasini saqlashdir. Va uni xuddi omonatdek ertangi avlodlarga topshirish, o‘z navbatida ular ham buni omonat anglamog‘i zarur.

Boshqa tillardan so‘zlar kirib kelaveradi. O‘n metr qalinlikdagi beton to‘siq qilganingizda ham uni qaytarolmaysiz. Bu tabiiy jarayon. Lekin baribir o‘ylab ko‘rish kerak. Hozir kirib kelayotgan har qanday so‘zning qo‘liga “pasport berib”, ruschasiga aytganda “propiska” berib, uni to‘rga o‘tkazavermaslik kerak-da. O‘zimizning tilda kirib kelayotgan shu so‘zning biror muqobili bormi? Shuni ifodalaydigan o‘z so‘zimiz bormi? Shuni o‘ylab ko‘rishimiz lozim. Agar bo‘lsa, o‘z so‘zimizni qabul qilamiz. Hozirgacha “Boboso‘z izidan” kitobida 500 ta so‘z o‘rganildi. Undan tashqari, yon daftardagi yozuvlar bor. “So‘zlar guvohligida” degan bo‘limlar bor. U yerda boshqa so‘zlar haqida ham gap ketadi.

Shu ishni boshlaganimdan xursandman, to‘g‘risi. Chekka qishloqlardan minnatdorlik ruhida yozilgan xatlar oldim. Turkmaniston, Tojikiston bilan chegara tomonlarda istiqomat qiluvchi insonlardan maktublar keldi. Demak, yurtdoshlarimizda so‘ziga o‘z mulkidek, o‘zining xazinasidek qarash hisi haliyam bor ekan. “Boboso‘z izidan” kitobini takomillashtirish ustida ishlayapman. Ba’zida bitta so‘zning asl ildizini topib shunday zavqlanamanki, buni so‘z ustida ishlagan odamgina his qiloladi. Uning zavqi bo‘lak. Nasib, Xudo qodir qilganicha, bu ishni davom ettiraman.

– Jadidlik harakati millat tafakkurida misli ko‘rilmagan ulkan to‘lqinni vujudga keltirgan, shunday emasmi?

– Albatta, ularning hammasi o‘ziga xos bo‘lgan. Har bir soha vakillari o‘z yo‘nalishida jadidona harakatni amalga oshirgan. Men o‘zim Abdulla Qodiriyni juda yaxshi ko‘rib o‘qiyman. Eh, yurak titrab ketadi-da bular haqida gapirganda. Qatag‘on millatimiz uchun juda katta yo‘qotish bo‘lgan. Bir o‘ylangda, ularning eng kattalari 45, 46 yoshda edi. Xalqimizga o‘sha paytlar Xudo bergan ekan-da... Menda Abdulla Qodiriyning oxirgi surati bor. Shu suratga tik qaray olmaysiz. Qarashga jur’atingiz yetmaydi-da.

Buni men so‘z bilan ifodalab berolmayman. Shubhasiz, bularning barchasi o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Agar ular qatag‘on qirg‘iniga uchramaganida hozir o‘zbek xalqi ilm-fan, madaniyat, iqtisod, umuman barcha sohalarda boshqacha taraqqiyot bosqichida bo‘lardi. Ko‘rdingizmi, millat rivojida shaxslarning o‘rni ne chog‘lik ahamiyatli. Bugun endi muhimi yoshlarimiz ularni yaxshi bilmog‘i lozim.

Hozir mamlakatimizda jadidlar merosini o‘rganish va uni targ‘ib qilishga davlat siyosati miqyosida juda katta e’tibor qaratilayotir. Jadidlarni yoshlarimiz bilishi kerak. Mana shunda bizning qaddimiz ko‘tariladi. Bolalarimiz ulug‘larimizni bilishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir. Jadidlarning yagona maqsadi Vatanni, millatni ko‘tarish bo‘lgan. Ular butun hayotini shu yo‘lga tikkan. Buni yoshlarimiz bilishlari shart. Bizning ma’naviy pirlarimiz bular. Donolarning shunday gapi bor: “Har bir pirdan bittadan so‘z yod biling. Agar bu qo‘lingizdan kelmasa ularning ismlarini yodda saqlang. Shubhasiz, baraka topasiz”. Xuddi shunday Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Behbudiy, Fitrat bu – butun bir katta avlod. Oldingdan oqqan suvni qadri yo‘q, deyishadi. Lekin bular hozir ham daryodek oqib turibdi. Boshqa joyga ko‘za ko‘tarib yugurib yurmay, o‘zimizning zilol buloqlar suvidan ichaylik. Mana shular daryosidan bahramand bo‘laylik. Ana shunda intilganimiz, izlaganimiz – moddiy va ma’naviy barakaga erishajakmiz.

– Suhbatlashish taklifini qabul qilganingiz va mazmunli fikrlaringiz uchun tashakkur.

Zarnigor BAXTIYOR qizi suhbatlashdi.

YASMINA OMAR-MUN:

“MAQOM KUYLAB, MAQOMIM OSHDI”



Boshlanishi 1-sahifada.

Ayni kunda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutining 2-bosqich magistriman. Bu dargohda ustozlarimdan har bir qo‘shiq so‘zlarining ma’nosiga jiddiy e’tibor berib kuylashni o‘rgandim.

Qachondir o‘zbek tilini sof gapiraman va maqom yo‘nalishida qo‘shiqlar aytaman, deb hecham o‘ylamaganman. Bugun meni koreys qizi deyishmaydi, “anavu o‘zbek qizi, qo‘shiqni juda zo‘r aytarkan-da”, deyishadi, koreysligimga ko‘pchilik ishonmaydi ham. Men esa bu gaplardan xursand bo‘laman. O‘zbekistonimizni, o‘zbek tilini juda sevaman va qadrlayman. O‘zbek tilim – o‘z tilim. Maqomni kuylab, maqomim oshdi, deyman faxrga to‘lib.

Ba’zi bir o‘zbek yoshlarining o‘z ona tilini qadrlamayotganiga, to‘g‘risi, achinaman. Men atoqli o‘zbek yozuvchilari va shoirlarining asarlarini, g‘azallarini, she’rlarini ko‘p o‘qiyman, yod bilaman.

Abdulla Qodiriyning, “O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”, degan so‘zlarida bir olam ma’no borligini koreys qizi bo‘la turib ham yaxshigina anglayman. Mumtoz adabiyotlarni ko‘p mutolaa qilaman. Ustozlarim ham bu yo‘lda ko‘mak berishadi, qo‘llashadi, bilmaganimni o‘rgatishadi. Ba’zida har bir so‘z ohangi ustida soatlab ishlaymiz, izlanamiz.

Tan olib aytadigan bo‘lsam, shu til, shu millat, shu yurt odamlari meni o‘zbek milliy kuy va qo‘shiqlariga bo‘lgan mehrimni yanada kuchaytiryapti. Maqom yo‘nalishida aytgan har bir qo‘shiqlarimni muxlislarim sevib tinglayapti, olqishlayapti. Ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarimda yaxshi tilaklar bildirishyapti. Aslida, baxt shu emasmi?

Bugungi kunda juda ko‘p xorijlik yoshlar, o‘zbekcha qo‘shiqlarni kuylayapti, o‘zbek tilida she’rlar yozyapti. Shular qatorida o‘zim ham maqom qo‘shiqlarini aytib, el ichida sekin-asta tanilib boryapman va bundan faxrlanaman.

Asli millatim koreys bo‘lsa-da, maqtanishga yo‘ymang-u, o‘zbek tilida yaxshi gapiraman. Bolaligimda onamdan o‘zbekcha gapirishni o‘rganganman. Boshida o‘n uch yoshimga qadar estrada yo‘nalishida o‘zbekcha qo‘shiqlar aytdim. Keyinchalik mumtoz qo‘shiqlarga mehrim uyg‘onib, o‘zbek tilini chuqurroq o‘rganishga jiddiy ahd qildim. Chunki mumtoz qo‘shiqlarning so‘zlarini tushunish ijrochidan alohida tayyorgarlik talab etadi. Ulg‘ayganim sari angladimki, bu til juda nafis, jarangdor va go‘zal ekan.

O‘zbekistonday tinch, osuda bir mamlakatda tug‘ilib, kamolga yetganim, shu obod o‘lkada yashayotganimga har doim shukronalar keltiraman. O‘zbekona urf-odatlarni, qadriyatlarni qadrlayman. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yuksak mukofot – “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganim ham mening baxtim!

Orzularim ko‘p. Kelgusida o‘zbek milliy maqomi mavzusida ilmiy izlanishlar olib bormoqchiman. Eng asosiysi, o‘zim kamolga yetgan shu jannatmonand yurtimizga munosib farzand bo‘lmoqchiman, o‘z ijodim bilan shu muqaddas ona Vatanimizga chin dildan xizmat qilmoqchiman.

Z.IBRAGIMOVA
yozib oldi.

TEATR SAN’ATI

OTA-O‘G‘IL “DIYDOR”I



Xalqimizda “otaga qarab ot chopadi, onaga qarab to‘n bichadi”, degan naql bor. O‘zbekiston xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshev nomidagi “Diydor” eksperimental teatr-studiyasi rahbari Bobur Yo‘ldoshevning san’at sohasiga kirib kelishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘ldi. Bolaligi teatrda, aktyorlar orasida kechgan Bobur 1988-yildayoq kino san’atiga ilk qadamini qo‘ydi. Mashhur rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev va betakror aktrisa Rimma Ahmedovaning to‘qqiz yoshli arzanda o‘g‘liga “Tush sotuvchisi” deb nomlangan ertak-filmidagi bir lahzalik rol kelajak eshigini ochdi.

1993-yilda u dastlab Nabi Abdurahmonov, keyin esa rejissyor Shuhrat Abbosovning tayyorlov kurslarida o‘qigach, O‘zbekiston Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan “Zumrad va Qimmat” ertak-spektaklida ilk obrazini yaratadi. O‘shanda o‘n to‘rt yoshda edi. U o‘sha kezlarda taniqli oiladan chiqqaniga qaramay, teatrda barcha “qora ishlar”ni bajarganini aytadi. Texnik bo‘lib ham ishlaganini, uch hafta davomida butun teatr binosini yarqiratib yuvganlarini xotirlaydi.

U otasi Bahodir Yo‘ldoshev va ustozi Nabi Abdurahmonovning ish uslubi, dunyoqarashi, mahoratini o‘zaro solishtirib, o‘ziga xoslik yo‘lini topdi. Shu choqqacha oltmishga yaqin spektaklni sahnaga olib chiqdi. Bularni sahnalashtirishda o‘ttiz yil birgalikda faoliyat olib borgan ustozining madadiga tayandi.

Rejissyorlik haqida gapirar ekan, u shunday deydi:

– Men rejissyor Bahodir Yo‘ldoshevga baho bera olmayman. Bunga haddim sig‘maydi. U kishining menga aktyor sifatida munosabati haqidagina gapira olaman. Otam o‘ta talabchan, qattiqqo‘l va mahoratli rejissyor edi. U bilan ishlash har qanday aktyor uchun juda qiyin bo‘lgan, menimcha. Bahodir Yo‘ldoshev rejissyorligida to‘rtta rol ijro etganman. Shu jarayonda otamga faqat bir martagina savol berganman va “jim o‘tir” degan dakki eshitganman. Chunki u kishi juda berilib ishlardi. Menga ijro davomida parvo qilmasdi, faqat ko‘rsatma berardi. Boshqa paytda gaplashardi, albatta, ammo ish jarayonida u rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev edi.

Bobur o‘z hayotini aktyorlikda ko‘rardi, rejissyor, qolaversa, rahbar bo‘lishni istamasdi. Ammo o‘z-o‘zidan “ota kasb” tomon ketdi, Moskva shahridagi teatr rahbarligi kursida o‘qidi. O‘zining rejissyorlik ishlaridan esa halicha qoniqish tuymaydi. “Diydor” teatri unga Bahodir Yo‘ldoshevdan keyingi yo‘l bo‘lsada, ishni uning yo‘nalishida davom ettirishning iloji yo‘q. O‘z yo‘limni topdim, deb ham o‘ylamaydi.

U “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasiga uch yildan buyon rahbarlik qilmoqda. Boshida juda qiynalganini aytadi. Javobgarlik, mas’uliyat yuki og‘ir edi. Ijodkor esa ozod qush bo‘lishni istaydi. Bobur Yo‘ldoshevdek erkin aktyorga teatr direktori bo‘lishdek mas’uliyat og‘irlik qilardi.

– Nabi Abdurahmonov asarni bir marta o‘qishdayoq aktyorlarni sahnaga qo‘yib yuborardi, – deydi u. – Bahodir Yo‘ldoshev esa hamma ishni pyesani o‘qish jarayonida bajarardi. Otam rejissyor sifatida aktyorlarga bor talabni asarni o‘qish jarayonida qo‘yib bo‘lardi. Sahnada esa faqat ularni kuzatardi. Chunki Bahodir Yo‘ldoshevning aktyorlari sahnaga chiqqanida o‘zi o‘ynayotgan obrazning ichiga kirib ketgan bo‘lardi. Men otamday talabchan emasman. O‘zim ham aktyor bo‘lganim uchunmi, ularga ko‘proq erkinlik beraman.

Darvoqe, Bobur Yo‘ldoshev kinoda ham o‘nlab rollarni mahorat bilan ijro etgan.

Yoshligida qiziqqonlik bilan “Nega mening har bir yutug‘imni ota-onamga bog‘laydilar”, deb kuyinardi. So‘ng “Mayli, e’tiborga tushishim ortidan meni dunyoga keltirganlar eslanarkan”, deb suyundi. Avvaliga o‘zidan Bahodir Yo‘ldoshev va Rimma Ahmedova darajasidagi ijodkorni izladi va o‘zigagina xos bo‘lgan yo‘lni topdi.

Bugun uning teatri san’atsevar insonlar uchun maishiy mavzudan xoli asarlarni sahnalashtirmoqda. Hayot tashvishlaridan charchab, madaniy hordiq uchun teatrga tushgan tomoshabinni yana mayda ikir-chikirlar haqidagi spektakllar bilan chalg‘itishni istamaydi u. Axborot tezligi zabt etgan yoshlarning ruhiyati bugun avvalgiday uzoq ko‘riladigan sahna asarlariga chidamasligini hisobga olib, spektakllarning ritmini o‘zgartirdi. Uch soatlik tomoshalarni bugungi yoshlar qabul qilmaydi. Ularning istak-irodasidan kelib chiqib, spektakl davomiyligini bir, bir yarim soatdan nariga o‘tkazmaslikka intiladi.

So‘nggi yillarda “Diydor” yoshlar eksperimental teatri sahnasida Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi” dramasi asosida “Masxarabozlar ishi”, Koki Mitanining “Kulgi akademiyasi”, Gabriel Markesning “Patriarx haqida afsona” asari asosida “Buzruk haqida afsona”, Mar Bayjiyevning “Uchburchak”, Fridrix Dyurrenmattning “Avtohalokat”, Yolqin To‘ychiyevning “Mono – Lock”, Maks Frishning “O‘t qo‘yuvchilar”, Uilyam Shekspirning “Qirol Lir” pyesalari namoyish etilib, ko‘p sonli tomoshabinlar e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Pyesalarda Farhod Abdullayev, Abduhalil Mingnorov, Karim Mirhodiyev, Egamberdi Rahimov, Yulduz Rajabova, Adiz Rajabov, Alisher Uzoqov, Ozodbek Alimov, Anvar Hamroqulov, Mahliyo Asqaraliyeva kabi iste’dodli aktyorlar o‘z mahoratini ko‘rsatdi. Teatr jamoasining galdagi repertuarlari uchun esa Temur Zulfiqorov qalamiga mansub “Qafasdagi kaklik” asari rejalashtirilmoqda.

Bobur Yo‘ldoshev rahbarligidagi teatr jamoasida ellikdan oshiq xodim faoliyat olib boradi. Yigirma nafar sara aktyor shu yerda jam. Teatr jamoasining taniqli polyak rejissyori Mojay Viktor bilan spektakl almashuvi ham rejada bor. Unga ko‘ra, hamkorlardan dramaturg Mojarinning bir aktli spektakli olinadi. Ularga esa Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” spektakli beriladi. Qo‘shma spektakl sahnalashtirilib, birinchi aktda polyak teatri “Baxtsiz kuyov”ni, “Diydor” teatri esa Mojarin asarini namoyish etadi.

Bobur Yo‘ldoshev insonning yulduzi yorug‘ bo‘lishi uchun, faqat, iqtidorning o‘zi kamlik qiladi, deb hisoblaydi. Tanilish, nom qozonish uchun albatta omad ham kerakligini ta’kidlaydi. Ehtimol, yetuk ijodkorlar oilasida dunyoga kelgani uning dastlabki omadi hisoblansa, ajabmas. Esini taniboq teatr va kino olamida yashagan, hayratini film va spektakllardan topgan iste’dod sohibining bugun san’at va madaniyat sohasiga qo‘shayotgan munosib hissasi bor.

M.RUSTAMOVA



“Teatr fikrni ommaga xuddi nondek taqdim qilishi kerak.”

Viktor GYUGO

“YOSH XIVALIKLAR”:
ALDANGANLAR QISMATI

Boshlanishi 1-sahifada.



O‘z safiga o‘lkada rivoj topayotgan savdo-sanoat kapitali egalari va sarmoyador zamindorlarni birlashtirgan bu oqim maktablar, kasalxonalar qurish, vohaga temir yo‘l keltirish orqali tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarishni ko‘zlagandi. Ammo 1913-yilda Islomxo‘janing xon buyrug‘i bilan vahshiylarcha o‘ldirilishi natijasida jadidlikning bu oqimi jiddiy zarbaga uchradi va aksar sarmoyador insonlar qasosdan qo‘rqib, o‘z qarashlarini o‘zgartirishdi yoki harakatni tark etishdi.

Jadidlikning so‘l oqimi tepasida xonlikning bosh qozisi Boboxun Salimov turardi. Ularning maqsadi xonlikni tugatish, o‘rnida respublika o‘rnatish – Ovrupadagi davlatlarga o‘xshagan xalq tomonidan saylab qo‘yiladigan rahbarlik tizimini yaratish edi. So‘l oqim namoyandalari ham birinchi navbatda ikki tomonlama zulm ostida qoloqlikka yuz tutgan o‘lkani ma’rifat orqali taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni orzu qilishardi.

1914-yil avgust oyida xonlikda “Yosh xivaliklar” firqasi tashkil qilinadi. Yangi firqa tashkilotchisi va ilk yo‘lboshchisi Polvonniyoz hoji Yusupov bo‘lgan. Bir qator xorijiy davlatlarda bo‘lgan, to‘rtta tilda bemalol gaplasha oladigan ziyoli, jasur inson o‘z xalqini ozod ko‘rish orzusida bo‘lgan hamfikrlarni birlashtirishga butun hayotini bag‘ishlaydi.

“Yosh xivaliklar” firqasi tasodifan paydo bo‘lmagan – Usmonli saltanatini yuzaga kelgan inqirozdan saqlab qolish maqsadida Turkiyada tuzilgan “Yosh turklar” firqasidan ulgu olingandi. (Buxoro amirligida tuzilgan “Yosh buxoroliklar” firqasini eslang!) Shu bilan birga yangi firqa boshida turganlarning barchasi jadidlik oqimi nomayandalari ekanligi, ular endilikda faqat ma’rifat deb bong urish bilan vaziyatni o‘nglash qiyinligi, buning uchun siyosiy islohotlar zarurligini anglab yetishganini alohida ta’kidlash kerak.

Bu ularning dasturiy maqsadlarida aks etgan: xonlikni tugatish, xon tomonidan tortib olingan yerlar va mulklarni fuqarolarga bo‘lib berish, vaqf yerlaridan kelgan daromadlarni barcha tumanlarda ochiladigan bepul maktablarga yo‘naltirish, yo‘llar va ko‘priklar, kasalxonalar qurish, eng asosiysi Xorazmni Turkiston bilan birlashtirish. Dasturdagi so‘nggi band eng muhimi. Negaki jadidlar tarqoq xonliklarni mustamlakachilar osongina ishg‘ol qilishganini yaxshi bilishar, Turkiston o‘lkasi yaxlit musht – yagona davlatga birlashsagina kelajagi xavfsiz bo‘lishi, jahoniy taraqqiyot yo‘liga dadil chiqib olishi mumkinligini teran his qilishardi.

Yangi firqa yetakchilari xonlikda taniqli insonlar bo‘lishgan. Yetti nasli xonlik boshqaruv tizimida devonbegilik qilgan Husayin Matmurod devonbegi o‘g‘li, xonlik bosh qozisi lavozimini otasidan meros olgan Bobooxun Salimov, bir qator sanoat korxonalari egasi Nazir Sholikorov, Turkiyada tahsil olgan mulla Bekchon Rahmonov va boshqalarni shu qatorga qo‘shish mumkin.

Yangi firqa aynan o‘lka bolalari uchun bepul maktablar tashkil qilish va ularni moddiy qo‘llab-quvvatlashlari natijasida 1915-yilga kelib xonlikda g‘oyatda mashhur bo‘lib ketgan. Bu, albatta, avvalo xonga, eskilik tarafdorlari bo‘lgan kimsalarga, ayniqsa dindor qatlam vakillariga yoqmasdi. Shu sabab “Yosh xivaliklar”ni obro‘sizlantirishga urinish, hatto ularga ochiqdan-ochiq qasd qilish holatlari ko‘paya boradi.

Uzog‘-u yaqin tarixda har qanday saltanatda o‘nglab bo‘lmas silkinishni yuzaga chiqaradigan biror tasodif hodisa ro‘y berishi ko‘p kuzatilgan. Xiva xonligida bu holat ishratparast xonning yurtga “qiz solig‘i” solish haqidagi qaroridan so‘ng ro‘y beradi. Gurlandan zo‘rlab xon haramiga olib kelingan Asiljon ismli o‘n olti yashar qiz Asfandiyorga xotin bo‘lishdan bosh tortib, o‘z joniga qasd qiladi. Bu fojia butun o‘lkaga yashin tezligida tarqaydi va isyon hidi anqib qoladi.

Gurlan va Mang‘it bekligidan xon siyosatiga qarshi bo‘lganlar Xivaga yurish boshlaydi. Uch mingdan ziyod qurollangan olomonga turkmanlar sardori Qurbon Mamed sardor – Junaidxonning qo‘shilishi vaziyatni keskin o‘zgartirib yuboradi va xonni tahlikaga soladi.

“Yosh xivaliklar” yetakchilari ayni shu vaziyatdan foydalanib qoladi. Ular isyonchilarni Xiva ostonasida to‘xtatib, masalani hal qilishni zimmalariga olishadi va xon bilan muzokora o‘tkazish uchun sakkiz nafar kishini tanlashadi. Ammo, isyondan dovdirab qolgan Asfandiyorxon muzokarachilar bilan sulhga osonlikcha ko‘nmaslik uchun vaqtdan yutishga harakat qilayotgani (Bu paytda xon yugurdaklari Turkiston general-gubernatoridan madad so‘rab, shoshilinchnoma yuborishgandi) jadidlarning sabr kosasini to‘ldirib yuboradi. Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov Ko‘hna Arkka kirib, Asfandiyorni yoqasidan ushlab, odamlar huzuriga olib chiqadi va shu yerda uni so‘roqqa tutadi.

Xon elning otasi bo‘laturib yosh qizlarga ko‘z olaytirishi islom arkonlariga to‘g‘ri kelishkelmasligi bo‘yicha xonning bosh qozisi Bobooxun Salimovga savol berishadi. Shu o‘rinda asli jadid Bobooxun Salimov ham siyosat osmonida porlash lahzalari yetganini anglab, ko‘p ming kishilik olomon oldida xonning qilmishi shariatga to‘g‘ri kelmasligini ochiq-oydin aytib, Qur’on oyatlari va sahih hadislar bilan isbotlab beradi. Asfandiyor o‘z jonini asrash uchun aybni boshqalarga yuklaydi va besh nafar yuqori martabali mulozimini isyonchilar qo‘liga topshiradi. Ularni Qoraqumga chiqarib, qatl qiladilar. Qatl qilinganlar orasida Islomxo‘janing o‘g‘li, otasi o‘rniga bosh vazirlikka tayinlangan Ismoilxo‘ja ham bor edi...

Isyon to‘xtaydi. Bu orada xon iltimosiga binoan Turkiston general-gubernatori Sirdaryo okrugi boshlig‘i general Galkin boshliq besh ming nafar puxta qurollangan jazo qo‘shinini yuboradi. Xonlik tarixiga “Galkin qirg‘ini” nomi bilan kirgan qatliomda minglab kishilar o‘qqa uchadilar, isyon rahbarlaridan besh kishi dorga tortiladi, ustiga ustak isyonchilardan xon foydasiga 554 ming so‘m tovon puli zo‘rlik bilan undiriladi.

“Yosh xivaliklar” rahbari Polvonniyoz hoji Yusupov va Nazir Sholikorov “dinsizlikda” ayblanib, qozi sudiga tortiladi. Nazir Sholikorov Rusiya fuqarosi ekanligi haqidagi hujjatni ko‘rsatib, jazodan qutulib qoladi. Polvonniyoz Yusupovga esa hamfikr tanishlari yordam berib, muqarrar o‘limdan saqlab qolishadi.

Asfandiyor general Galkin ko‘magida “Yosh xivaliklar”ning ko‘pchiligini zindonga tashlattirgandi. Firqaning omadi chopgan a’zolari Chorjo‘y, Mari, To‘rtko‘l (o‘sha vaqtda Petro-Aleksandrovsk) va Toshkent shaharlariga qochishga muvaffaq bo‘lishgandi.



Aslida zulm zulmni tug‘diradi. Eng yomoni, ojiz qolgan tomon “Dushmanimning dushmani – do‘stim” deyilmish qoidaga bo‘ysunadi. Biz buni “Yosh xivaliklar” taqdirida ham ko‘ramiz. To‘rtko‘ldan qo‘nim topgan “Yosh xivaliklar” shu yerda sovet hukumati o‘rnatgan bosqinchilardan (ular orasida yerlik millat vakillari ham bo‘lgan) madad kutishadi. Toshkentga qochib kelganlardan Polvonniyoz hoji Yusupov va Nazir Sholikorov Turkiston o‘lkasi xalq komissari kengashiga murojaat qilib, xon zindonidagi firqadoshlarini ozod qilishda yordam so‘rashadi.

Shu o‘rinda jadidlar o‘z g‘oyalari amalga oshishi uchun vaqt va manzil bilan hisoblashmaganliklarini 1918-yil boshlarida Toshkentda “Yosh xivaliklar” firqasi qaytadan birlashib, katta kuchga aylanganidan ko‘rish mumkin.

Bu orada “buzulg‘on yurt”da talato‘plar avjiga chiqqandi. Bundan foydalangan Junaidxon 1918-yil yanvar oyida Xivani ishg‘ol qiladi. Asfandiyor qo‘g‘irchoq xonga aylanadi. 1918-yil 30-sentyabrda Junaidxon Asfandiyorni taxtdan tushirib, o‘rniga akasi Sayyid Abdullani o‘tqazib, amalda o‘zi yurt egasi bo‘lib oladi. (Asfandiyor 1-oktyabrda qatl qilingan).

Bir yarim yil taxtda o‘tirgan Sayyid Abdulla 1920-yil 25-yanvarda “Yosh xivaliklar” firqasi talabi bilan taxtdan voz kechadi. Bobooxun Salimov yetakchilik qilgan “Yosh xivaliklar” shu yili 1-fevralda bo‘lib o‘tgan Umumxorazm qurultoyida Xorazm Xalq Respublikasi (XXR) tuzilganini e’lon qiladilar. Qurultoy Respublika konstitutsiyasi, gerbi va boshqa davlat belgilarini qabul qiladi. Yangidan tuzilgan hukumat o‘n beshta vazirlikka “Yosh xivaliklar” vakillaridan nozirlar tayinlaydi. Shu yili XXR nomidan Boboxun Salimov boshliq qurama Peterburgga boradi va 1920-yil 13-sentyabrda RSFSR hukumati bilan iqtisodiy-siyosiy shartnoma imzolaydi. RSFSR rasman XXRni tan oladi, ammo...

“Yosh xivaliklar” xon zulmidan bedod aytib, To‘rtko‘l hamda Toshkentdagi sovetlar huzuriga borishgan va shular yordamida xonni taxtdan ag‘darib, o‘z mustaqil davlatini tuzishgandi. Ular “dushmanimning dushmani – do‘stim” deganlar hatto oldingi dushmanlari – xon va uning amaldorlaridan ham yovuz ekanligini qaydan bilibdi, deysiz.

...Bolsheviklarning Xorazmga yuborgan elchisi Bik degan kimsa hukumat yig‘ilishida to‘satdan so‘zga chiqib, o‘lkada paxta yetishtirishni oshirish bo‘yicha ko‘rsatma beradi. (Elchining maqomi – ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yishdan iboratligi, elchi buyruq berish vakolatiga ega emasligini Bik degani bilmasmidi? Bilardi, albatta!)

Toshkentda mustahkam o‘rnashib olgan sovet hukumati “Yosh xivaliklar”dan yangi respublika atamasiga “sotsialistik” so‘zini qo‘shishni hamda bolsheviklar partiyasi tashkilotlarini tuzishni talab qilishadi.

Yangi respublika poytaxtida hamda daryo ortidagi To‘rtko‘l shahrida bolsheviklarning puxta qurollangan ko‘p sonli qo‘shini paydo bo‘ladi. Ular har qanday e’tirozga kuch ishlatish bilan javob qaytarishadi. Yangi respublika hukumati raisi va markaziy ijroiy qo‘mitasi rahbari to‘rt yilda o‘n marta almashtirilgani, qirq nafarga yaqin nozirlar qatl qilingani, ko‘pchiligi quvg‘inga uchragani shunday “o‘yinlar” natijasidir...

Bir vaqtlar xon bilan kelishib, jadidlarga qarshi bo‘lgan Junaidxon xatosini kech bo‘lsada anglab, bosqinchilarga qarshi g‘azot e’lon qiladi – o‘lkada beshafqat fuqarolar urushi boshlanib ketadi.

“Yosh xivaliklar” firqasi boshida turgan mustaqillik harakati aynan sovetlar va ularga ergashib aldangan tub aholidan tarkib topgan olomon tufayli mag‘lubiyatga uchraydi.

Ushbu firqani tuzgan, o‘lkaga yangi nafas olib kirish orzusida bo‘lgan insonlarning birortasi o‘z ajali bilan o‘lmagan. Boboxun Salimov, mulla Jumaniyoz Sultonmurodov va Masharif Qoriyevni qizil militsiya sudsiz-so‘roqsiz jismonan mahv qilgan. Birinchi o‘zbek suratkashi va kinooperatori Xudoybergan Devonov, o‘lkada yangi ruhdagi ilk gazeta tashkil qilgan va uning bosh muharriri bo‘lgan mulla Bekchon Rahmonov, yoshlar harakati yetakchisi va yozuvchi Qurbon Beregin, Olim Qodiriy va boshqa yuzlab millat oydinlarini 1937-38-yillardagi Stalin qatag‘oni o‘z domiga tortgan.

...Bundan 110 yil muqaddam ezgu maqsadlar bilan tuzilgan “Yosh xivaliklar” firqasi o‘lka tarixida, garchi xatolari yetarlicha bo‘lsa-da, yaxshi nom qoldirishdi. Ular jonlarini qurbon berish evaziga necha-necha avlodlar shuurida mustaqillik g‘oyasi qayta kurtak yozishiga va alaloqibat ulug‘ istiqlolga erishishimizga ruhan poydevor vazifasini o‘tadilar.

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Mulla Sayfitdin Domullajonov – 1884-yili Kosonsoy rayoni Kommunizm qishlog‘ida tug‘ilgan. “Nashri Maorif” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Kollektivlashtirishga qarshi qaratilgan aksilinqilobiy qo‘zg‘olonga tashkilotchilik qilganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 22-avgustdan hisoblangan.

Mo‘min Rustamov – 1878-yili Kosonsoy rayoni Arovat qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. 1930-yili bosmachilikda ayblanib sudlangan. “Nashri Maorif” aksilinqilobiy tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan paytda qayta ishlangan pishloq tayyorlovchi bo‘lib xizmat qilgan. 1929-yili kollektivlashtirishga qarshi aksilinqilobiy qo‘zg‘olon ko‘targanlarning eng faoli bo‘lgani uchun 8 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 3-sentyabrdan hisoblangan.

Abdulla Tokmulin – 1921-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Millati tatar. “Nashri Maorif” va “Jamiyat Islomiya” tashkilotlarining faol a’zosi bo‘lgan. Unga Sovet hokimiyatini diskreditatsiya qilinishiga qaratilgan aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlik aybi qo‘yilgan. U 8 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 4-sentyabrdan hisoblangan.

Qosim Boboyev – 1892-yili Qo‘qon shahrida savdogarlar oilasida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. 1935-yili partiya hujjatini soxtalashtirgani uchun partiyadan o‘chirilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. Hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo‘lgan. Chet el razvedkasi bilan aloqada bo‘lganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 14-iyundan hisoblangan.

Iskandar Kamolov – 1882-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining a’zosi. Hibsga olingungacha oziq-ovqat do‘koni mudiri bo‘lib xizmat qilgan. U aholi orasida millatchilik targ‘ibotini olib borgani, xalq dushmanlarini maqtagani uchun 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 15-noyabrdan hisoblangan.

Ergash Burxonov – 1889-yili Buxoro rayonida tug‘ilgan. 1932-yili kolxozdagi kamomad tufayli qamoqqa olingan. Shuningdek, partiya a’zoligidan chiqarilgan. Qamoqqa olingunga qadar kolxoz raisi edi. U “Milliy ittihod” tashkilotining faol a’zosi bo‘lgan. O‘zining aksilinqilobiy faoliyatini fosh etishga uringan shaxslarni haydash bilan shug‘ullanganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 15-noyabrdan hisoblangan.

Sharifjon Ibodullayev – 1902-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Qamoqqa olingunga qadar do‘kon mudiri bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, aholi orasida doimiy ravishda mag‘lubiyatchilik xarakterida targ‘ibot olib borganlikda, ya’ni O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 15-noyabrdan hisoblangan.

Halil Oxun Abdurahimov – 1889-yilda Andijon shahrida tug‘ilgan. 1931-yili quloqqa tortilgan. “Sho‘royi Islom” tashkilotining sobiq a’zosi bo‘lgan. 1931-yili qamoqqa olingan. 1930-yilda kolxozchilik harakatiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonda faol ishtirok etgan. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik xarakteridagi targ‘ibot olib borganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi to‘qib chiqarilgan ig‘volarni tarqatganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Abdug‘ofurxo‘ja Abduraimxo‘jayev – 1871-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi bo‘lgan. 1921-yili 3 yil qamoq jazosiga tortilgan. Sovet hokimiyatiga qarshi aholi orasidagi aksilinqilobiy targ‘iboti, mag‘lubiyatchilik xarakteridagi faoliyati uchun 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 19-noyabrdan hisoblangan.

O‘rol Rahmatov – 1869-yili Jizzax rayoni Ko‘shbarmoq qishlog‘ida tug‘ilgan. 1931-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil qamoqqa hukm etilgan. 1919-yildan “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda diniy marosimlar xizmatchisi, imom vazifasida ishlagan. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblanib, otib tashlangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

ERTAMIZ EGALARI

“O‘ZBEK TILINI INTERNET TILIGA AYLANTIRAMIZ”





“Google” va “Yandeks” mutaxassislariga raqobatchi bo‘lgan o‘zbekistonlik dasturchilar haqida eshitganmisiz? Albatta, eshitgansiz.

Nafaqat yurtimizda, balki chet mamlakatlarda ham o‘zining izlanish va yutuqlari bilan dunyoga mashhur bo‘lib borayotgan o‘zbekistonlik yoshlar safi yildan yilga kengayib borayotir. Bugungi maqolamizda ana shunday harakatchan yosh dasturchilarning biri haqida hikoya qilishni niyat qildik.

Muhammadsaid Mamasaidov endigina 23 yoshni qarshiladi. U Toshkent shahridagi Inha universiteti bitiruvchisi. Biroq erishgan natijalari olamga tatigulik. U o‘tgan yili “President Tech Award” tanlovining sun’iy intellekt yo‘nalishida o‘zining “Tahrirchi” loyihasi bilan birinchi o‘rinni egallab, naq 100 ming AQSh dollari miqdoridagi mukofotni qo‘lga kiritdi. Haloli bo‘lsin!

“Otam dasturchi. Bolaligimdan kompyuterlar qurshovida katta bo‘ldim, – deydi M.Mamasaidov. – O‘smirlik chog‘imdayoq veb-saytlarda ishlab, IT-sohasidagi tajribamni oshira boshlaganman. Ochig‘i, maktabda o‘qib yurgan paytlarimda shifokor bo‘lish haqida ko‘p o‘ylaganman. Lekin ota kasbi meni baribir ohanrabodek o‘ziga tortaverdi va nihoyat axborot texnologiyalari yo‘nalishini tanladim. Avvaliga Toshkent axborot texnologiyalari kollejida tahsil oldim. Keyin Toshkentdagi Inha universitetiga o‘qishga kirdim. O‘qish jarayonida o‘z ustimda ishlashdan, izlanishdan to‘xtamaslikka harakat qildim. Albatta, ustozlarimizdan juda ko‘p narsalarni o‘rgandim. Ularning bergan bilimi, maslahati va tavsiyasi yutuqlar garovidir. Universitetda “Tahrirchi” va “Tilmoch” jamoalarini tuzganmiz.

Jamoa atigi uch talabadan iborat edi o‘shanda. Ikki yildan ortiq vaqt mobaynida loyiha ustida izlanishlar olib bordik. Loyiha internet texnologiyalari sohasiga bo‘lgan qiziqish va o‘zbek tiliga bo‘lgan mehrimiz uyg‘unligining nishonasidir. Jamoa bilan savodxonlik hamda ona tiliga bo‘lgan hurmatni targ‘ib qilishga qattiq kirishib ketdik. Natijasi ham mehnatga yarasha bo‘ldi. Orzu-niyatlarim juda ko‘p. Xorijda ta’limni davom ettirib, o‘z tajribalarimni amaliyotda sinab ko‘rish uchun yanada ko‘proq o‘qib, izlanmoqchiman. Yangi ixtirolar qilmoqchiman. Kindik qonim to‘kilgan shu ona zaminga, mehnatkash xalqimizga ozgina bo‘lsa-da nafim tegsa, loyihalarimiz yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilsa, shuning o‘zi men uchun katta yutuqdir”.

Hozirda qahramonimiz sifatli “o‘zbekcha tarjimon”i va “plagiat tekshiruvi” kabi bir qator istiqbolli loyihalar bo‘yicha izlanishlar olib bormoqda. Yosh dasturchilarning “Tahrirchi” jamoasi 2022-yilda “mGovAward” tanlovida ham g‘olib chiqib, 50 ming AQSh dollarini qo‘lga kiritishgan. Muhammadsaid rahbarlik qilayotgan mazkur jamoa ayni paytda o‘zbek tilida matn hosil qila oladigan til modelini yaratish ustida izlanishmoqda.

Talabalik davrining ikkinchi bosqichidayoq unga ustozlari tomonidan vazifa yuklatilgan edi. Yosh dasturchi o‘zbek tilidagi matnning imlosini tekshirish loyihasi bo‘yicha ishlashga qaror qiladi. Ammo ish jarayonida buning nihoyatda murakkabligini anglab yetadi. Biroq o‘qishdan, izlanishdan bir zum ham to‘xtamagan iqtidorli yigit baribir ko‘zlagan maqsadiga erishadi.

“Ochig‘i, dastlabki kezlarda men ona tilimizni tanlangan loyiha uchun talab qilinadigan darajada bilmas edim. Ish jarayonida o‘zbek tilini puxta o‘rganishga harakat qildim. Shu asnoda milliy tilimiz qay darajada boy va mukammal ekanligini anglab yetdim va unga mehrim yanada oshdi. Ko‘nglimda shunday jozibali til sohibi bo‘lgan o‘zbek xalqining farzandi ekanligimdan faxrlanish tuyg‘usi paydo bo‘ldi. Izlagan imkon topadi, deb bejiz aytilmagan ekan, – deydi yosh dasturchi. – “Tahrirchi” – bizning asosiy va yagona ish joyimiz. Biz mas’uliyati cheklangan jamiyat sifatida ro‘yxatdan o‘tganmiz va “IT-Park”dagi rezidentligimiz tufayli daromad solig‘ini ikki baravar kam to‘laymiz. Yaqin kelajakda grammatik tekshirgichni ishga tushirish, shuningdek, o‘zbek tilidagi chat-botni yaratishni rejalashtiryapmiz. Bugun biz hamma narsani tejash harakatidamiz. Grant mablag‘larimiz yil oxirigacha yetadi. Har qanday startap uchun sarmoyani jalb qilish har doim dolzarb hisoblanadi. Buning uchun esa mavjud mahsulotlarni monetizatsiya qilish yo‘llarini ko‘rsatishimiz kerak”.

Yosh dasturchining kelajakdagi rejalari va intilishlarini tinglar ekanmiz, Yangi O‘zbekistonimizning istiqboli ana shunday iqtidorli yoshlar qo‘lida ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildik. Zero, bugungi yosh avlod ertangi kunimizning nurli davomchilari, yaratuvchilari va bunyodkorlaridir.

Zarnigor IBRAGIMOVA



“Doim o‘zingizdan shubha qiling va biror ishni bundan-da yaxshi uddalash mumkin ekani haqida o‘ylang.
Ilon MASK

ZARDA

“Ne yuz qarolig‘ bo‘ldi...”

“Alisher Navoiy” spektaklida shoir bobomiz tilidan aytilgan shunday so‘zlar bor:

“Afsus, biror osuda dam yo‘q,
Ko‘ngil yig‘laydi-yu,
ko‘zlarda nam yo‘q”.

Shu kunlarda Andijonda, Bobur Mirzo haykali atrofida bo‘layotgan mashmashalarni eshitib, kishi beixtiyor shu so‘zlarni eslaydi.

Xabarlarga ko‘ra, Andijon viloyati hokimligi shahar markazidagi Bobur haykalini ko‘chirib, o‘rniga yirik savdo majmuasi, ko‘ngilochar markazlar qurish harakatini boshlabdi. Haykalni Andijon shahridagi “Registon” maydoniga ko‘chirish, buning hisobiga bo‘shaydigan 1,2 gektar yerga boyagi binolarni qurish ko‘zda tutilmoqda ekan.

Bu yangilik faollarning e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda, deb yozadi ijtimoiy tarmoqlar. Jumladan, “Qalampir.uz” buni “Boburni “anjancha quvish” deb atabdi.

Hokimlik shu tariqa 90 million dollar investitsiya kiritilishini, haykalning ko‘chirilishi maydon yaqinidagi chorrahada qurilayotgan ko‘prik bilan bog‘liqligini iddao qilayotir.

Bu xususda nima deyish mumkin?

Avvalo, Bobur Mirzoning ushbu haykali birinchi marta ko‘chirilayotgani yo‘q. Bu muhtasham yodgorlik yaratilganidan so‘ng (muallifi – O‘zbekiston xalq rassomi, mashhur haykaltarosh Ravshan Mirtojiyev) dastlab Andijon viloyati hokimligi oldidagi maydonga o‘rnatilgan va ancha vaqt shu yerda savlat to‘kib turgan edi. Lekin o‘sha paytda viloyatni boshqargan hokim, bir joyda ikki podshohning turishini nomaqbul deb hisoblagan shekilli, haykal hozirgi maydonga ko‘chirilgan edi. Biz hokim, albatta, to‘g‘ri qilgan, deb hisoblaymiz, chunki Bobur Mirzoning o‘zlari yozganlaridek, “O‘nta darvesh bir gilamga sig‘ishi mumkin, ammo ikkita podshoh bir mamlakatga sig‘maydi” (garchi ularning biri haykal bo‘lsa-da!).

Demoqchimizki, bobomizning haykali bunaqangi ko‘chmanchi hayotga, sarson-sargardonlikka ko‘nikib ketgan.

Hayron qoladigan tomoni shundaki, hokimlik Bobur haykali turgan maydon o‘rnida 16 va 20 qavatli savdo majmualarini qurish haqidagi rejalarini hech bir tortinmasdan, namoyishkorona e’lon qilmoqda.

Agarki hokimlik haykal o‘rnidagi bo‘shagan yerga savdo majmuasi emas, aytaylik, maktab, bog‘cha yoki shifoxona quramiz, deganida ham bu gapni bir navi tushunish mumkin edi. Nima, savdo majmuasini boshqa joyda, masalan, bugungi kunda barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivida qurish mumkin emasmi?

Hozircha esa... hozircha nainki Andijon eli, balki butun xalqimiz, ma’rifatli dunyo haqli ravishda faxr qiladigan buyuk shoir va olim, davlat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining muborak siymosi navbatdagi sargardonlik oldidan *“Tole’ yo‘qe jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi, Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi”* deya mahzun qiyofada bizlarga boqib turibdi.

Shu munosabat bilan bir fikr bildirmoqchimiz.

Modomiki, Bobur Mirzo, o‘tmishda bo‘lganidek, o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtiga sig‘may qolgan ekan, ul zotning haykalini birato‘la boshqa bir viloyatga, masalan, qo‘shni Namangan viloyatiga ko‘chirib o‘tkazishni taklif etamiz. Nega deganda, Bobur bobomizning haykalini o‘rnatish mo‘ljallanayotgan Andijondagi “Registon” maydonidan kelajakda uni tag‘in boshqa bir joyga ko‘chirilmasligiga hech qanday kafolat yo‘q. Axir, yaqin kunlarda yana kimdir ushbu maydonda ham 25 qavatli savdo majmuasi qurishni istab qolishi mumkin-ku, to‘g‘ri emasmi?

Mulla XUNOB

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Butun so‘zni xalq ichidan olaylik

Bir sinfdoshim bilan suhbatlashib o‘tirgandik. Telefon hisobi o‘chibdi. “Wi-Fi” so‘radi. Uzatdim. Daqiqa o‘tmay ketma-ket bildirishnomalar ovozi jarangladi. Shunda daladan kelmagan tili bilan ajoyib gap aytdi. “E-he! Bir kun internetga kirmaganimga bir suruv xabar kepti!” Qo‘liga kitob olmagan yigitning tashbehini ko‘ring!

Jiyanim o‘g‘lini urishyapti: “Jim yot, bo‘lmasa, Movlon keladi!” Bola sho‘rlik o‘chdi-qoldi. Qiziqib so‘radim: “Mavlon deganing kim?” Izohladi: “Mavlonmas, Movlon! Pishakka laqab. Mov bo‘lganda qo‘yganmiz”. Yo tavba, buni qanday o‘ylab topdi? “Movlon nimaligini o‘zi bilmaydi. Lekin qo‘rqadi. Nimaligini bilsa, qo‘rqmasdi” qo‘shimcha qildi jiyan.

Ko‘chada ketayotsam, bir qiz dugonasi bilan xo‘shlasha turib shunday dedi: “Bo‘pti, ketdim, tel qilarsan”. Yozishda-ku, mayli, lekin gapirishdayam erinishadi-ya?! “Facebook”ni “Fb”, “Instagramm”ni “Insta” deyishadi. Shu kabi uncha uzun bo‘lmagan so‘zlarni ham qisqartirib gapirishadi-yu, ayrim ruscha uzun so‘zlarni oliftalikka to‘liq, chiroyli talaffuz qilishadi. Vaholanki, ko‘pining o‘zbekchasi nari borsa, ikki yo uch bo‘g‘in.

Turkiy til nega jang tili bo‘lgan? Chunki muloqotga qulay. *Ol, tur, yur, ot, qoch, kir...* fe’llar aksariyati bir bo‘g‘in. Ammo arabcha, forscha, ruscha, inglizcha so‘zlar uzun bo‘lishiga qaramay tilimizga oson yopishadi. G‘alati paradoks (zidlik, qarama-qarshilik, tazod, nomutanosiblik)!

Taniqli mutarjimlardan birining inglizchadan qilgan tarjimasini o‘qib, ajablangandim. Nega? Asliyatda asar qahramoni baqirvordi: “O, my God!” (“Yo Tangrim!”) Mutarjim bunday o‘girgan: “Ayo Robbil A’lamin!” Holbuki, qahramon ruhoniy emas. Kundalik suhbat parchasi. Akamiz inglizchadan o‘zbekchagamas, arabchaga o‘giribdilar, shekilli degandim. Mayli, badiiy bo‘yoq bergisi kelgandir, lekin bunchalik chaplab yuborish shartmasdir?

Ana endi gapning indallosiga o‘tsak. Kecha bittasi azbaroyi zerikkanidan Fb(!)ga yozibdi: “Xolodes”ning o‘zbekchasi nima bo‘ladi?” Topqir o‘zbegim bir dunyo variantlarni qalashtirib tashlaganki, o‘qib maza qivorasiz! Mana ular: “liqqildoq”, “kilkildoq”, “qilpildoq”, “bilqildoq”, “jippildoq”, “dirildoq”, “hil-hildoq”, “biliq-biliq”, “muzsho‘rva”, “yumshoqsovuq”, “ilvira”, “yaxnama”, “liq-liqa”, “liqliqi”, “aspiq”, “hashlama”, xorazmliklar “do‘ngdirmo” derkan, bittasi jonini ko‘p koyitib o‘tirmay “pishirib, sovutilgan yaxna go‘sht” deb qo‘ya qoldi. Mana sizga olam-olam so‘z! Xalq ziyrak. Xalq dono. Xalq topqir.

Xo‘sh, aziz mushtariy, sizda ham variant bormi?

Sh.IBROHIMOV
Facebook

YANGI LUG‘AT



TURER – mototsiklning bir turi bo‘lib, u haydovchilar va yo‘lovchilar uchun qulay o‘tirish joyiga ega bo‘ladi. Shuningdek, mototsikl haydovchilarni kiruvchi havo oqimidan to‘liq himoya qiladi.



VAYFAY – internetga ulash imkonini beruvchi simsiz texnologiya bo‘lib, undan kompyuter, telefon hamda planshet kabi qurilmalarni radio to‘lqinlar orqali internetga bog‘lashda foydalaniladi.

NETIKET – zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bugungi davrda internet hamjamiyatining xulq-atvor, muloqot qoidalari, an’analari va madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi tushuncha.



ZUMER – internet va ijtimoiy tarmoqlar asrida o‘sgan va ko‘pincha “raqamli avlod” deb ataladigan, 2000-yildan keyin tug‘ilgan avlod. Zumerlar oldingi avlodlardan dunyoga ochiqroq munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turadi.



Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do‘stbekov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 827
Lotin yozuvidagi adadi – 11 904
Media kuzatuvchilar – 19 370
Buyurtma: G – 1140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:50
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz